

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI



URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA VA SAN'AT FAKULTETI
MUSIQIY TA'LIM KAFEDRASI

YUSUPOVA MAFTUNA ARISLONOVNA

5111100 – Musiqiy ta'lim yo'nalishi bo'yicha
(shifri va ta'lim yo'nalishi nomi)

bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: UMUMTA'LIM MAKTABI 7-SINFIDA VENA KLASSIK
MAKTABI NAMOYONDALARI BILAN TANISHTIRISH USHLBLARI

ILMIY RAHBAR:

KATTA O'QITUVCHI
BOLTAEV RUSTAM



URGANCH 2015-yil

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA VA SAN'AT FAKULTETI
MUSIQA TA'LIMI KAFEDRASI

“UMUMTA'LIM MAKTABI 7-SINFIDA VENA KLASSIK MAKTABI
NAMOYONDALARI BILAN TANISHTIRISH USHLUBLARI”

BAJARUVCHI: 

YUSUPOVA MAFTUNA ARISLONOVNA

RAHBAR: 

KATTA O'QITUVCHI BOLTAEV RUSTAM
QURBABOEVICH

URGANCH - 2015-yil

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA VA SAN'AT FAKULTETI
MUSIQA TA'LIMI KAFEDRASI

BITIRUV MALAKAVIY ISHNI BAJARISH
BO'YICHA TOPSHIRIQLAR

REJASI:

Talabasi: Yusupova Maftuna Arislonovna

Universitet rektorining “_____” - sonli _____ buyrug'i bilan bitiruv
malakaviy ish bajarish uchun “Umumta'lim maktabi 7-sinfida Vena klassik
maktabi

namoyondalari bilan tanishtirish uslublari” mavzusi tasdiqlangan.

2. Kafedra majlisining qaroriga binoan katta o'qituvchi Boltaev Rustam Kurbanbaevich bitiruv malakaviy ishini bajarishga rahbar qilib tayinlangan.

3. Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilmasi: kirish, ikki bob, besh qism, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

4. Bitiruv malakaviy ish uchun ma'lumotlar: Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.2008, Abdullaev R.A. Musiqa ijodiyoti masalalari to'plami, Ibraximov O.Sadirov J. Musiqa 7-sinf uchun darslik T.2008, Galatskaya V. Muzikalnaya literatura zarubejnix stran. I tom M.1985, Druskin M. Istoriya zarubejniy muziki vip II M.1983, Konen V. Istoriya zarubejnuy muziki 7-izdaniya M.1989, Kolovskiy O.P. Analiz vokalnix proizvidenii L. 1988, Kruntyaeva T. va boshqalar Slovar inostrannix terminov L. 1985, Levik B. Chet el musiqasi /T.G'afurbekov tarjimai / T.1987, Levik B.V. Muzikalnaya literatura zarubejnix stran. Vip.P.M.1979, Levik B.V. Muzikalnaya literatura zarubejnix stran. Vip.V.M.1984, Lobanova M. Muzikalniy stil i janr M. 1990, Mamirov K.A. Uzluksiz ta'lim tizimida musiqa fanlarini o'qitish masalasi . T.2009, Patina S.V. Iz istorii zarubejnuy muziki. M.1977, Popova T.V. Zarubejnaya muzika XVIII veka. M.1976, Proxorova I. Muzikalnaya literatura zarubejnix stran. M.1987

BITIRUV MALAKAVIY ISHNI BAJARISH JADVALI

<i>No</i>	<i>Bajarilgan ishning mazmuni</i>	<i>Bajarish muddati</i>
1	Mavzuni kafedrada tasdiqlatish	2014-yil, oktabr
2	Bitiruv-malakaviy ishini yozish nizomi bilan tanishish.	2014- yil, dekabr
3	Mavzu bo'yicha manba yig'ish, tegishli nazariy adabiyotlarni o'rganish	2015-yil, yanvar
4	O'rganilgan adabiyotlarni tahlil qilish,	2015- yil, yanvar
5	Yig'ilgan materiallarni sistemalashtirish,	2015- yil, fevral
6	Tanlangan mavzuni tadqiq qilishning ilmiy tahlil metodlarini o'rganish	2015- yil, fevral
7	To'plangan materiallar asosida ishni kirish qismini yozish	2015- yil, mart
8	Ishni birinchi bobini yozish	2015- yil, mart
9	Ishning ikkinchi bobini yozish	2015- yil, aprel
10	Ishning xulosa qismini yozish	2015- yil, aprel
11	Adabiyotlar ro'yxatini yozish	2015- yil, aprel
12	Ishni rahbarga tahririyat uchun taqdim qilish	2015- yil, may
13	Ishning dastlabki himoyasi	2015- yil, may

Bitiruv malakaviy ish rahbari:

katta o'qituvchi Boltaev Rustam

Qurbanboevich

Bajaruvchi talaba:

Yusupova Maftuna Arislonovna

2014 yil " 5 " sentyabr

Topshiriqlar rejasi va jadvali kafedra majlisida 2014 yil tasdiqlandi

("5.09" 2 - sonli bayonnoma)

Kafedra mudiri:

Abblay

katta o'qituvchi Nurmatova M. A

BITIRUV MALAKAVIY ISH BO'YICHA RAHBARINING MULOHAZALARI

Talabasi: Yusupova Maftuna Arislonovna

Bitiruv malakaviy ish mavzusi: Umumta'lim maktabi 7-sinfida Vena klassik maktabi namoyondalari bilan tanishtirish uslublari

Bitiruv malakaviy ish hajmi: kirish, ikki bob, besh qism, xulosa va foydalangan adabiyotlardan iborat.

Tushuntirish qismi: 7 sahifadan iborat

Ilovalar soni: 11 sahifadan iborat

Mavzuning dolzarbligi: Respublikamizda barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, ularni har tomonlama rivojlangan shaxs etib voyaga yetkazish Respublika Prezidenti Islom Karimovning diqqat markazida turibdi.

Barkamol avlodni shakllantirish dastlab oilada, so'ngra uzluksiz ta'lim tizimi asosida amalga oshiriladi. Uzluksiz ta'lim-tarbiya rasman bog'chadan boshlab malaka oshirish kurslarida o'qish bilan tugallanadi. Bu borada Prezident I.Karimovning – “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asarida – ta'lim – tarbiya va ma'naviyat xaqida atroflicha yozgan.

Vena klassik maktabi ma'rifatchilik g'oyalariga jamiki dunyoqarashlari-yu, uslub xususiyatlari va demokratik yo'nalishi bilan mahkam bog'langandir. XVIII asr yevropa san'atiga yoyilgan ma'rifat g'oyalari turli mamlakatlar ilg'or kishilarining faoliyatida o'ziga xos aksini topdi. XVIII asrning ikkinchi yarmi – musiqa madaniyati tarixidagi eng ajoyib davrlarning biri.

Bitiruvchi umumkasbiy va maxsus tayyorgarligining tavsifi Yusupova Maftuna Arislonovnaning umumkasbiy va maxsus tayyorgarligi yaxshi. Mavzuga doir adabiyotlardan o'rinli foydalangani bitiruv malakaviy ishida o'z aksini topgan.

Bitiruvchi talabaning mustaqil ishni bajarish layoqati, maxsus adabiyotlardan foydalanish qobiliyati va shaxsiy xususiyatlari: Ishda bitiruvchi ilmiy etika talablariga rioya etganki, bu uning ilmga jiddiy e'tibor bilan qaraganidan

dalolat beradi. Bitiruvchi talabanning mustaqil ishni bajarish layoqati yaxshi, maxsus adabiyotlardan foydalanish qobiliyati yuqori. Yusupova Maftuna tirishqoq, o'ziga talabchan va nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay oladi, bilim, malaka va ko'nikmalarini doimo oshirib boradi.

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari: Berilgan tavsiyalarni ishlab chiqarishda va ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish imkoniyatlari Bitiruv malakaviy ishda mustaqil mutolaani tashkil etishda ta'lim metodlari o'quv metodlarini chuqur o'zlashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, o'quvchilarning yosh xususiyatlari hisobga olinib, ta'lim tarbiya jabhasida yutuqlarga erishishi izchil tahlil etilgan. Tadqiqot ishi natijalaridan umumta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlariida unumli foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishga qo'yilgan talablarning bajarilishi darajasi: Ish bitiruv malakaviy ishga qo'yiladigan talablarga to'la javob berdi. Ishni himoyaga tavsiya etaman.

Bitiruv malakaviy ish rahbari:

Boltaev R.Q.

2015 yil "16" yan



URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI FILOLOGIYA VA SAN'AT

FAKULTETI MUSIQIY TA'LIM KAFEDRASI

5111100 – Musiqa ta'limi ta'lim yo'nalishi

Yusupova Maftuna Arislonovnaning

Bitiruv malakaviy ishiga

TAQRIZ

Malakaviy ish mavzusi: “Umumta'lim maktabi 7-sinfida Vena klassik maktabi namoyondalari bilan tanishtirish uslublari”

Malakaviy ishning hajmi 11531 so'zdan iborat

a) tushuntirish qismi varaqlar soni: 7 sahifadan iborat

b) ilovalar soni: 11

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi va berilgan topshiriqqa mosligi Respublikamizda barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, ularni har tomonlama rivojlangan shaxs etib voyaga yetkazish Respublika Prezidenti Islom Karimovning diqqat markazida turibdi.

XVIII asrning ikkinchi yarmi – musiqa madaniyati tarixidagi eng ajoyib davrlarning biri. Ijtimoiy-tarixiy va g'oyaviy jihatdan muhim o'zgarishlar bilan nishonlangan yangi zamon o'z davrining ilg'or g'oyalarini olijanob asarlarda aks ettirib bera oladigan yangi san'atni, yetuk ustod-kompozitorlarning maydonga chiqishini talab etdi. Adabiyot va she'riyat olamida Gyote bilan Shiller, musiqa olamida Gaydn, Motsart hamda Betxoven javlon urdi. Biroq, Betxovenning ulug'vor asarlari endi kelgusi asrga mansub bo'lib qoldi; musiqa san'atining avval o'tgan taraqqiyotini umumlashtirib bergan va uni ancha oldinga surgan Gaydn bilan Motsart ijodi boshdan-oyoq XVIII asr ijodiyoti mahsulidir.

Bitiruv malakaviy ishning “Kirish” qismida va ilova qilingan materiallarning tarkibi va bajarilish sifati: Tadqiqotning “Kirish” qismida mavzuning dolzarbligi o'rganilishi, maqsad va vazifalarining, ob'ekti va predmeti, ilmiy yangiligi kabi masalalar o'z echimini topgan.

Malakaviy ishda ilmiy manbalar: Fan-texnika innovatsiya yutuqlari natijalaridan foydalanilganligi Bitiruv malakaviy ishda ilmiy manbalardan o'rinli foydalanilgan. Asosan, 2000 yildan keyingi ilmiy-nazariy badiiy adabiyotlar tadqiqot ishining asosini tashkil etgan. Ishda keyingi davrdagi ilmiy tadqiqot ishlaridan internet ma'lumotlaridan unumli foydalanilgan.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy-uslubiy va texnik iqtisodiy jihatdan asoslanganligi: Bitiruv malakaviy ish ravon ilmiy uslubda yozilgan bo'lib, unda uslubiy, imloviy xatolar deyarli uchramaydi.

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari. Berilgan tavsiyalarni ishlab chiqarishda va ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish imkoniyatlari Bitiruv malakaviy ishda mustaqil mutolaani tashkil etishda ta'lim metodlari o'quv metodlarini chuqur o'zlashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, o'quvchilarning yosh xususiyatlari hisobga olinib, ta'lim tarbiya jabhasida yutuqlarga erishishi izchil tahlil etilgan. Tadqiqot ishi natijalaridan umumta'lim maktablarida unumli foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishidagi kamchiliklar: Ishda umumta'lim maktablarida interaktiv metodlarni, pedagogic va innavatsion texnologiyalardan foydalanib texnik vositalar yoradamida dars o'tilsa, ish samaradorligi yanada oshardi.



Taqrizchi:

To'raev A.

Urganch san'at kolleji o'quv ishlari
bo'yicha direktor o'rinbosari

2015 yil "17" iyun

**BITIRUV MALAKAVIY ISHNI DAK TOMONIDAN BAHOLASH
MEZONLARI**

№	Baholanadigan bo'limlar	Eng yuqori ko'rsatkich ball hisobida
1	BMI ning "Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos xolda bajarilishi	35
3	"Xulosa" qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10
5	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5
7	Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10
8	BMI mavzusi bo'yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferentsiyalarda ma'ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10

Eslatma: har bir kafedraning xususiyatlari e'tiborga olingan holda baholash mezonlariga o'zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiq.

Urganch davlat universiteti Filologiya va san'at fakulteti Musiqa ta'limi yo'nalishining bitiruvchisi Yusupova Maftuna Arislonovnaning "Umumta'lim maktabi 7-sinfida Vena klassik maktabi namoyondalari bilan tanishtirish uslublari" mavzusida bajarilgan bitiruv malakaviy ishi DAK ning "20" 2015 yil "iyun" dagi majlisida himoya qilinadi.

Davlat attestatsiya komissiyasi bitiruv malakaviy ishga quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlarini belgilaydi.

№	Baholanadigan bo'limlar	Eng yuqori ko'rsatkich ball hisobida	Komissiya belgilagan foiz
1	BMI ning "Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10	5
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos xolda bajarilishi	35	28
3	"Xulosa" qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10	5
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10	5
5	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10	5
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5	3
7	Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10	6
8	BMI mavzusi bo'yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferentsiyalarda ma'ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10	5
Jami:		100	62

Davlat attestatsiya komissiyasi majlisining qarori:

1. "Umumta'lim maktabi 7-sinfida Vena klassik maktabi namoyondalari bilan tanishtirish uslublari" mavzusida bajargan bitiruv malakaviy ish uchun 62 lik o'zlashtirish ko'rsatkichi belgilanish va "52%" deb baholansin.

2. _____

DAK raisi: _____

A'zolari: _____

2015 yil "20" "iyun"

Urganch davlat universiteti Filologiya va san'at fakulteti Musiqa ta'limi kafedrası

Bitiruv malakaviy ish 49 sonli tartib raqam bilan qayd qilindi.

Bitiruv malakaviy ishni bajaruvchining ismi-sharifi Yusupova Maftuna Arislonovna

Bitiruv malakaviy ishning mavzusi "Umumta'lim maktabi 7-sinfida Vena klassik maktabi namoyondalari bilan tanishtirish uslublari"

Ilmiy rahbar (maslahatchi) ning ismi-sharifi Boltaev Rustam Qurbonbaevich

Bitiruv malakaviy ish kafedraning 2015 yil "28" may da o'tkazilgan majlisi qaroriga muvofiq DAK majlisida himoya qildi.

Bitiruv malakaviy ishga taqrizchi qilib Urganch san'at kolleji o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari To'raev A. tayinlandi.

Kafedra mudiri: M. A. Nurmatova katta o'qituvchi Nurmatova M. A.

Kafedraning bitiruv malakaviy ishni DAK majlisida himoya qilish bo'yicha tavsiyasiga roziman.

Fakultet dekani:  dots. Ishmurotov M. J.

"Tasdiqlayman"
fakultet dekani K. S. Niyazov
" 9 " dekabr 2014 y.

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI FILOLOGIYA VA SAN'AT FAKULTETI
MUSIQA TA'LIMI KAFEDRASI 5111100 – MUSIQA TA'LIMI YO'NALISHI.
BAKALAVR BITIRUV MALAKAVIY ISH BO'YICHA TOPSHIRIQ

Talabasi Yusupova Mafiuna Arislonovna

1. Ishning mavzusi: "Umumta'lim maktabi 7-sinfida Vena klassik maktabi namoyondalari bilan tanishtirish uslublari"

" 13 " dekabr 2014 yil universitet rektorining 211762 sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

2. Ishni topshirish muddati: " 23 " may 2015 y.

3. Mavzu bo'yicha dastlabki ma'lumotlar beruvchi adabiyotlar ro'yxati

- a) I.Karimov, Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch T.2008
- b) Ibraximov O.Sadirov J. Musiqa 7-sinf uchun darslik T.2008
- v) Druskin M. Istoriya zarubejniy muziki vip II M.1983
- g) Levik B. Chet el musiqasi /T.G'afurbekov tarjimasi / T.1987
- d) Popova T.V. Zarubejnaya muzika XVIII veka. M.1976
- e) Proxorova I. Muzikalnaya literatura zarubejnix stran. M.1987

4. Ishning maqsadi Umumta'lim maktabi 7-sinfida Vena klassik maktabi namoyondalari bilan tanishtirish uslublari

5. Chizma materiallar ro'yxati: yo'q

6. Maslahatchilar: yo'q

Bo'limlar	Ilmiy rahbar (Maslahatchi) F.I.SH.	Imzo, sana	
		Topshiriq berdi	Topshiriq qabul qildi
I bob XVIII asr Vena klassik maktabi namoyandalarining tarixiy ahamiyatini o'rganish	Boltayev Rustam Qurbonboyevich	23.10.2014	30.10.2014
1.1. XVIII asr Vena klassik maktabining ahamiyati	Boltayev Rustam Qurbonboyevich	05.11.2014	26.11.2014
1.2. Y. Gaydn ijodining shakllanishi	Boltayev Rustam Qurbonboyevich	03.12.2014	24.12.2014
1.3. Y. Gaydnning simfoniya oratoriya va operalarining tarixiy ahamiyati	Boltayev Rustam Qurbonboyevich	05.01.2015	24.01.2015
II-Bob Umumta'lim maktabi 7-sinfida Vena klassik maktabi namoyondalari bilan tanishtirish uslublari	Boltayev Rustam Qurbonboyevich	21.01.2015	02.02.2015
2.1. Vena klassik maktabi namoyondalari V.A. Motsart va L. Betxoven ijodi	Boltayev Rustam Qurbonboyevich	28.01.2015	23.02.2015
2.2. Innovatsion texnologiyalar va ular asosida Vena klassik maktabi namoyondalari ijodini o'rganish uslublari	Boltayev Rustam Qurbonboyevich	07.03.2015	29.03.2015
Xulosa, kirish	Boltayev Rustam Qurbonboyevich	04.04.2015	03.05.2015

Ishga taqriz yozuvchining F.I.Sh., ilmiy darajasi, unvoni: Urganch san'at kolleji o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari To'raev A.

7. Ilmiy rahbar:

Boltaev Rustam Qurbonbaevich

BMI bajaruvchi talaba:

Yusupova Maftuna Arislonovna

Kafedra mudiri:

Nurmatova Maya Abdullaevna

Mundarija

Kirish	3-10
I - bob XVIII asr Vena klassik maktabi namoyandalarining tarixiy ahamiyatini o'rganish	
1.1. XVIII asr Vena klassik maktabining ahamiyati.....	11-17
1.2. Y. Gaydn ijodining shakllanishi.....	17-22
1.3. Y. Gaydnning simfoniya oratoriya va operalarining tarixiy ahamiyati.....	22-29
II-Bob Umumta'lim maktabi 7-sinfida Vena klassik maktabi namoyondalari bilan tanishtirish uslublari	
2.1. Vena klassik maktabi namoyondalari V.A. Motsart va L. Betxoven ijodi.....	29-38
2.2. Innovatsion texnologiyalar va ular asosida Vena klassik maktabi namoyondalari ijodini o'rganish uslublari.....	38-48
Xulosa.....	48-50
Foydalanilgan adabiyotlar.....	51
Ilova.....	52-63

KIRISH

Uzluksiz ta'lim-tarbiya rasman bog'chadan boshlab malaka oshirish kurslarida o'qish bilan tugallanadi. Inson kamolatida har bir davr muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqa bo'yicha dars beruvchi pedagoglarning hozirgi kundagi asosiy vazifasi haqida yurtboshimiz o'z asarida shunday fikr bildiradi: "... agar insonning qulog'i yengil-yelpi ohanglarga o'rganib qolsa, bora-bora uning badiiy didi, musiqa madaniyati pasayib ketishi, uning ma'naviy olamini soxta tushunchalar egallab olishi hech gap emas. Oxir-oqibatda bunday odam "Shashmaqom" singari milliy merosimizning noyob durdonalarini ham, Motsart, Betxoven, Bax va Chaykovskiy kabi dunyo tan olgan buyuk kompozitorlarning asarlarini ham qabul qilish qiyin bo'ladi... musiqiy ta'limni yanada rivojlantirish masalalari o'ta muhim ahamiyat kasb etadi".¹

XVIII asrning ikkinchi yarmi – musiqa madaniyati tarixidagi eng ajoyib davrlarning biri. Ijtimoiy-tarixiy va g'oyaviy jihatdan muhim o'zgarishlar bilan nishonlangan yangi zamon o'z davrining ilg'or g'oyalarini olijanob asarlarda aks ettirib bera oladigan yangi san'atni, yetuk ustod-kompozitorlarning maydonga chiqishini talab etdi. Va bular chiqib kelishdi ham. Bax va Gendel kabi jahon musiqa san'ati allomalarining ijodiy faoliyati endi o'tmishda qoldi. Adabiyot va she'riyat olamida Gyote bilan Shiller, musiqa olamida Gaydn, Motsart hamda Betxoven javlon urdi. Biroq, Betxovenning ulug'vor asarlari endi kelgusi asrga mansub bo'lib qoldi; musiqa san'atining avval o'tgan taraqqiyotini umumlashtirib bergan va uni ancha oldinga surgan Gaydn bilan Motsart ijodi boshdan-oyoq XVIII asr ijodiyoti mahsulidir.

Jamiyat hayotining g'oyaviy sohalaridagi, shu jumladan san'atdagi oqimlar kurashi konkret milliy-tarixiy shart-sharoitlarga qarab ayrim mamlakatlarda har xil tus oldi va pirovard natijada o'sha paytlarda hali yosh bo'lgan burjuaziya sinfining feodal tuzumga qarshi kurashdan iborat bo'lib, shuni bilvosita aks ettirib turdi.

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.2008. 4-bet

Vena klassiklari cholgʻu siklning shunday bir yuksak tipini yaratdilar, unda butun obraz mazmunining boyligi mukammal badiiy shaklda mujassamlashgan. Tarixan endi qaror topibolgan anʻanaviy shakllarda yozilgan Gaydn bilan Motsart simfoniyalari, konsertlari, kvartetlari, sonatalarida mazmun hamisha belgilab beruvchi negiz boʻlgan; shakl esa, barcha struktura qonuniyatlari saqlab qolgani holda etarlicha ixcham boʻlib chiqar va har safar obraz mazmuniga, musiqada aksini topmish hayot protsesslariga boshdan-oyoq keladigan qilinib, goʻyo yangidan yaratilib borar edi ².

Vena klassiklari asarlarining shakli va mazmuni yuksak darajaga yetgan estetik birlikni tashkil etar edi. Ayni vaqtda mavzular materiali harch qachon abstrakt, neytral-betaraf boʻlganemas, aksincha, bu material obrazlarining yaqqolliigi, maʼnodorligi, individual xarakterliligi bilan ajralib turadi va shuning ham tinglovchi ongiga mahkam oʻrnashib, esda saqlanib qoladi.

Biroq, Vena klassiklari mavzularining individual xarakterliligi hamisha umumlashtirilishi bilan payvasta boʻlib ketadi, bu klassiklar hayotdagi tasodifiy, yakka bir hodisani qanday boʻlsa shundayligicha tasvirlab bermasdan, balki koʻpdan-koʻp odamlarning tushunishiga oson boʻlgan tipik, muhim hodisalarni badiiy jihatdan umumlashtirib, gavalantirib berishadi. Mana shuning uchun ham Vena klassiklarining musiqasi eng keng tinglovchilar doiralarida hanuzgacha hammaga manzur boʻlib keladi.

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamizda barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning intellektual salohiyatini roʻyobga chiqarish, ularni har tomonlama rivojlangan shaxs etib voyaga yetkazish Respublika Prezidenti Islom Karimovning diqqat markazida turibdi.

Barkamol avlodni shakllantirish dastlab oilada, soʻngra uzluksiz taʼlim tizimi asosida amalga oshiriladi. Uzluksiz taʼlim-tarbiya rasman bogʻchadan boshlab malaka oshirish kurslarida oʻqish bilan tugallanadi. Bu borada Prezident I.Karimovning – “Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch” asarida – taʼlim – tarbiya va maʼnaviyat xaqida atroflicha yozgan.

² Popova T.V. Zarubejnaya muzika XVIII veka. M.1976. 85-bet

Inson kamolatida har bir davr muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqa bo'yicha dars beruvchi pedagoglarning hozirgi kundagi asosiy vazifasi haqida yurtboshimiz o'z asarida shunday fikr bildiradi: "... agar insonning qulog'i yengil-yelpi ohanglarga o'rganib qolsa, bora-bora uning badiiy didi, musiqa madaniyati pasayib ketishi, uning ma'naviy olamini soxta tushunchalar egallab olishi hech gap emas. Oxir-oqibatda bunday odam "Shashmaqom" singari milliy merosimizning noyob durdonalarini ham, Motsart, Betxoven, Bax va Chaykovskiy kabi dunyo tan olgan buyuk kompozitorlarning asarlarini ham qabul qilish qiyin bo'ladi... musiqiy ta'limni yanada rivojlantirish masalalari o'ta muhim ahamiyat kasb etadi".³

Jahon musiqa madaniyati shakllanib, to hozirga qadar yetib kelish jarayonida bir necha tarixiy bosqichlarni boshdan kechirdi. Vena klassik maktabi ma'rifatchilik g'oyalari jamiki dunyoqarashlari-yu, uslub xususiyatlari va demokratik yo'nalishi bilan mahkam bog'langandir. XVIII asr yevropa san'atiga yoyilgan ma'rifat g'oyalari turli mamlakatlar ilg'or kishilarining faoliyatida o'ziga xos aksini topdi. XVIII asrning ikkinchi yarmi – musiqa madaniyati tarixidagi eng ajoyib davrlarning biri. Ijtimoiy-tarixiy va g'oyaviy jihatdan muhim o'zgarishlar bilan nishonlangan yangi zamon o'z davrining ilg'or g'oyalarini olijanob asarlarda aks ettirib bera oladigan yangi san'atni, yetuk ustod-kompozitorlarning maydonga chiqishini talab etdi. Adabiyot va she'riyat olamida Gyote bilan Shiller, musiqa olamida Gaydn, Motsart hamda Betxoven javlon urdi. Biroq, Betxovenning ulug'vor asarlari endi kelgusi asrga mansub bo'lib qoldi; musiqa san'atining avval o'tgan taraqqiyotini umumlashtirib bergan va uni ancha oldinga surgan Gaydn bilan Motsart ijodi boshdan-oyoq XVIII asr ijodiyoti mahsulidir.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Vena klassik maktabi namoyandalaridan Y.Gaydn yuzdan ortiq, V.Mosart qirq bitta, L.Betxoven esa to'qqizta simfoniya turkumlarini ijod etgan.

Vena klassik maktabi kompozitorlari opera san'atini ham sermazmun asarlari bilan boyitishga va shu asnoda uni rivojlantirishga o'z hissalarini

³ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.2008. 4-bet

qo'shganlar. Bunga V.A.Mosartning "Figaroning uylanishi", "Sehrli nay", "Don Juan". Betxovenning "Fidelio" operalari yorqin nomunalardir.

Vena musiqa madaniyati – turmushga oid xalq musiqasi, professional kompozitorlar musiqasi, opera musiqasining ravnaq topishi Vena klassik maktabining vujudga kelishi uchun barakali va qulay bir zamin bo'ldi, bu maktab davrning barcha ilg'or yutuqlarini yakunlab berdi va jahon musiqa san'atining qo'lga kiritgan zo'r muvaffaqiyati bo'lib qoldi.

Vena klassik maktabi namoyondalarining ijodini o'rganishda chet el musiqashunos va olimlari shuningdek, Leningrad va Moskva konservatoriyasi professor-o'qituvchilari tomonidan atroflicha o'rganilgan. Vaynkop Yu.,Gusin I. Kratkiy biograficheskiy slovar kompozitorov, Vladimirov V., Lagutin A. Muzikalnaya literatura, Patina S.V. Iz istorii zarubejnoj muziki, Popova T.V. Zarubejnaya muzyka XVIII veka, Proxorova I. Muzikalnaya literatura zarubejnix stran, Levik B.V. Muzikalnaya literatura zarubejnix stran, Levik B.V.Istoriya zarubejnoj muziki ko'p tomlik kitoblarida ushbu mavzuni o'rganganlar.

O'zbekiston Davlat konservatoriyasi professor-o'qituvchilari rus va o'zbek tilida Vena klassik maktabi kompozitorlari xaqida oliy o'quv yurtlari maxsus musiqa ta'lim muassasalari shuningdek, umumta'lim maktablari uchun dasrliklarda yozganlar. Galatskaya V. Muzikalnaya literatura zarubejnix stran, bu kitob bir necha jilddan iborat. Levik B. Chet el musiqasi T.G'afurbekov tarjimasi, Mamirov K.A. Uzluksiz ta'lim tizimida musiqa fanlarini o'qitish masalasi, Abdullaev R. A. Opera dramaturgiyasi, Abdullaev R.A. Musiqa ijodiyoti masalalari (maqolalar to'plami), Oqilxon Ibraximov, Jamil Sidirov Musiqa 7-sinf uchun darslik, S. Bekmatov va boshqalar muallifligida Musiqa 6-sinf uchun darsliklarida Vena klassik maktabi namoyondalari ijodi, hayoti va asarlar taxlili haqida yozilgan.

Sanalgan ushbu holatlar bitiruv malakaviy ish mavzusini: **“Umumta'lim maktabi 7-sinfida Vena klassik maktabi namoyondalari bilan tanishtirish uslublari”** deb tanlanishiga asos bo'ldi.

Tadqiqot ob’ekti: Vena klassik maktabi namoyondalari bilan tanishtirish, shuningdek o’sha davrda ijod qilgan kompozitorlar ijro uslubini texnik yozuv vositalari asosida o’quvchilarga eshittirib o’rgatish.

Tadqiqot predmeti: Umumta’lim maktabi 7-sinfida
Vena klassik maktabi namoyondalari
bilan tanishtirish uslublari

Tadqiqot maqsadi: Umumta’lim maktabi 7-sinfida
XVIII asr Vena klassik maktabining
ahamiyatini o’rganish uslublarini
o’rganish

Tadqiqot vazifalari:

1. XVIII asr Vena klassik maktabining ahamiyati
2. Y. Gaydn ijodining shakllanishi
3. Y. Gaydnning simfoniya oratoriya va operalarining tarixiy ahamiyati
4. Umumta’lim maktabi 7-sinfida Vena klassik maktabi namoyondalari bilan tanishtirish uslublari
5. Vena klassik maktabi namoyondalari V.A. Motsart va L. Betxoven ijodi
6. Innovatsion texnologiyalar va ular asosida Vena klassik maktabi namoyondalari ijodini o’rganish uslublari

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari: Jahon musiqa madaniyati shakllanib, to hozirga qadar yetib kelish jarayonida bir necha tarixiy bosqichlarni boshdan kechirdi. Yangi g’oyalar va obrazlar, yangi janr va shakllarning vujudga kelishi birinchi galda ijtimoiy-tarixiy o’zgarishlar bilan bog’langan. Musiqaning odamlarning ma’naviy boyligini shakllantirishdagi va ularni tarbiyalashdagi ahamiyati inobatga olinib, qariyb har bir mamlakatda ushbu san’atni yosh avlodga o’rgatishga mo’ljallangan.

Tadqiqotda qo‘llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi:

1. Analiz va sintez
2. Maxsus adabiyotlar va manbalarni o‘rganish
(Popova T.V. “Zarubejnaya muzыka XVIII veka”,
Proxorova I. “Muzikalnaya literatura zarubejnix stran”, Levik B.V. “Muzikalnaya literatura zarubejnix stran”, Levik B.V.”Istoriya zarubejnoy muziki”, Galatskaya V. “Muzikalnaya literatura zarubejnix stran”, bu kitob bir necha jilddan iborat. Levik B. “Chet el musiqasi”, T.G‘afurbekov tarjimasi, Mamirov K.A. “Uzluksiz ta’lim tizimida musiqa fanlarini o‘qitish masalasi”, Eshmuratov M. “Innovatsion texnologiyalar”, Abdullaev R.A. “Musiqqa ijodiyoti masalalari” (maqolalar to‘plami), mavzuga taaluqli adabiyot va manbalarni o‘rganish)
3. Ma’lumotlarni umumlashtirish, taqqoslash
4. Pedagogik kuzatish

Analiz va sintez uslubidan ilmiy materialni tanlash, o‘rganish, tadqiqot mavzusiga doir fikr va g‘oyalarni ajratish, tadqiqot xulosalarini chiqarishda foydalaniladi.

Proxorova I. “Muzikalnaya literatura zarubejnix stran”, Levik B.V. “Muzikalnaya literatura zarubejnix stran”, Levik B.V.”Istoriya zarubejnoy muziki”, Galatskaya V. “Muzikalnaya literatura zarubejnix stran”, bu kitob bir necha jilddan iborat. Levik B. “Chet el musiqasi”, T.G‘afurbekov tarjimasi adabiyot va manbalarni o‘rganish orqali Umumta’lim maktabi 7-sinfida Vena klassik maktabi namoyondalari bilan tanishtirish uslublarida metodik asoslarini o‘rganish va tahlil qilish mumkin. Tadqiqot mavzusiga doir asosiy ilmiy materiallar, g‘oya va fikrlar mazmuni musiqiy pedagogik mahorat asoslari, pedagogik texnologiya, zamonaviy kompyuter texnologiyalarini amaliyotga joriy qilish fanlarga oid maxsus adabiyotlarda o‘z aksini topgan.

Umumlashtirish va taqqoslash uslubi yordamida har bir o'rganilayotgan muammo yuzasidan xulosalar chiqariladi.

Pedagogik kuzatish uslubi vositasida Umumta'lim maktabi 7-sinfida Vena klassik maktabi namoyondalari bilan tanishtirish uslublari metodik asoslari o'rganiladi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati:

- Umumta'lim maktabi 7-sinfi musiqa madaniyati mashg'ulotlarida Vena klassik maktabi namoyondalari bilan tanishtirish uslublarini o'rganish, musiqiy ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishning ilmiy asoslanishida;
- Umumta'lim maktabi 7-sinfi musiqa madaniyati mashg'ulotlari jarayonida Vena klassik maktabi namoyondalari bilan tanishtirishning pedagogik-psixologik jihatlarini tadbqiq etishda;
- Umumta'lim maktabi 7-sinfi musiqa madaniyati mashg'ulotlari jarayonida Vena klassik maktabi namoyondalari bilan tanishtirishning o'ziga xos xususiyatlari ochib berilganligida;
- Umumta'lim maktabi 7-sinfi musiqa madaniyati mashg'ulotlari jarayonida Vena klassik maktabi namoyondalari bilan tanishtirishning innovatsion texnologiyalardan foydalanish metodikasi ishlab chiqilganligida;
- Umumta'lim maktabi 7-sinfi musiqa madaniyati mashg'ulotlari jarayonida Vena klassik maktabi namoyondalari bilan tanishtirishning o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini baholash mezonini ishlab chiqishda;
- Texnikaviy rivoj bosimida jadallab borayotgan va o'z ta'sirini o'tkazayotgan musiqiy taraqqiyot oqimining yoshlarga ta'siri o'z kuchini ko'rsatmoqda, ta'limda vaqt tejash hisobiga an'anaviy usulga nisbatan ko'proq material o'rgatilishi va mazmunining chuqurlashtirilishida;
- Umumta'lim maktabi 7-sinfi musiqa madaniyati mashg'ulotlari jarayonida Vena klassik maktabi namoyondalari bilan tanishtirishning metodikasini ishlab chiqilishi va metodik tavsiyalar berilishida.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

1. Umumta'lim maktabi 7-sinfi musiqa madaniyati mashg'ulotlari jarayonida Vena klassik maktabi namoyondalari bilan tanishtirishning asosiy jihatlari asoslab berildi;
2. Umumta'lim maktabi 7-sinfi musiqa madaniyati mashg'ulotlari jarayonida Vena klassik maktabi namoyondalari bilan tanishtirishning metodik ta'minoti yaratildi;
3. O'quvchilarning innatsion texnologiyalar asosida Vena klassik maktabi namoyondalari bilan tanishtirish metodikasi ishlab chiqildi.

Bitiruv malakaviy ishi tarkibining qisqacha tavsifi:

Kirish, 2 bob, xulosadan iborat. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati ilova qilinadi. Ish 54 bet (asosiy matn – 50 bet, 29 ta manba, va ilova)dan tashkil topgan.

Kirish qismida tadqiqot qilinayotgan mavzuning dolzarbligini asoslab berilgan, izlanish maqsadi, ob'yekti, predmeti, vazifa va metodlari ko'rsatilgan, ilmiy farazi qo'yilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy qimmati ichib berilgan.

Birinchi bob “XVIII asr Vena klassik maktabi namoyandalarining tarixiy ahamiyatini o'rganish” mavzuida muammoning nazariy, tarixiy asoslari tahlili natijalari yoritilgan, umumta'lim maktabi o'quvchilarida XVIII asr Vena klassik maktabining ahamiyati, Y. Gaydn ijodining shakllanishi, Y. Gaydnning simfoniya oratoriya va operalarining tarixiy ahamiyati bilan tanishtirish zaruriyati, afzalligi va tamoyillari asoslab bergan.

Ikkinchi bob “Umumta'lim maktabi 7-sinfida Vena klassik maktabi namoyondalari bilan tanishtirish uslublari” mavzusida Vena klassik maktabi namoyondalari V.A. Motsart va L. Betxoven ijodi, Innavatsion texnologiyalar va ular asosida Vena klassik maktabi namoyondalari ijodini o'rganish uslublari yoritilgan.

Xulosada olib borilgan tadqiqotning asosiy yakuniy fikr va umumlashmalari bayon qilingan.

I - bob XVIII asr Vena klassik maktabi namoyandalarining tarixiy ahamiyatini o'rganish

1.1. XVIII asr Vena klassik maktabining ahamiyati

Vena klassik maktabi ma'rifatchilik g'oyalariga jamiki dunyoqarashlari-yu, uslub xususiyatlari va demokratik yo'nalishi bilan mahkam bog'langandir. XVIII asr yevropa san'atiga yoyilgan ma'rifat g'oyalari turli mamlakatlar ilg'or kishilarining faoliyatida o'ziga xos aksini topdi.

Ko'p millatli mamlakatning turli viloyatlarida boshlanib turgan dehqonlar g'alayonlari ta'siri ostida Avstriya hukumati ba'zan liberallarcha yon berib, dehqonlarni asoratli qaramlikdan ozod etishga ham majbur bo'ldi. Lekin bu faqat xo'ja ko'rsinga qilingan ish bo'lib chiqdi, chunki bu chora dvoryan-pomeshchiklarni katta dehqonlar urushi xavfidan xoli qilib qo'yish va dvoryanlar monarxiyasini saqlab qolish vositasi bo'ldi. Xalq ahvoli mutlaqo yaxshilangani yo'q.

Avstriyadagi ma'rifatparvar arboblar xalq ahvoliga xayrixohlik bilan qarashar edi. Ular umumiy odillik g'oyasini oldinga surar, porloq istiqbolni orzu qilar, cherkovning rasmiy aqidalariga qarshi chiqar edilar. Ularning qarashlari Vena klassik maktabi kompozitorlarining dunyoqarashi shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Quvonchu shodlik, g'amu hasratlarga to'la jo'shqin va ko'p qirrali hayot, insonning ma'naviy dunyosi, dramatik kolliziyalar va xalq turmushidan olingan manzaralar, g'amgin o'y-fikrlar va tabiat manzaralari – mana shularning hammasi Vena klassiklarining asarlarida o'ziga xos bir tarzda gavdalanadi. Ularga xos bo'lgan yuksak insonparvarlik ruhi ular san'atining hayotbaxsh emotsional va g'oyaviy yo'nalishini belgilab berdi.

Aql-idrok va adolatning tantana qilishiga, porloq kelajakka chuqur va samimiy ishonch bilan qarash Vena klassiklariga xosdir.

Vena klassiklari musiqiy janrlarning shunday bir yuksak tipini yaratdilar, unda butun obraz mazmunining boyligi mukammal badiiy shaklda

mujassamlashgan. Tarixan endi qaror topib olgan an'anaviy shakllarda yozilgan Gaydn bilan Motsart simfoniyalari, konsertlari, kvartetlari, sonatalarida mazmun hamisha belgilab beruvchi negiz bo'lgan; shakl esa, barcha tuzilish qonuniyatlari saqlab qolgani holda yetarlicha ixcham bo'lib chiqar va har safar obraz mazmuniga, musiqa aksini topmish hayot taraqqiyotlariga boshdan-oyoq muvofiq keladigan qilinib, go'yo yangidan yaratilib borar edi.

XVIII asr ikkinchi yarmidan e'tiboran Avstriyaning poytaxti Vena shahrida musiqa madaniyati tez sur'atlar bilan rivojlana boshladi. Ma'rifatparvarlik asrining g'oyalari ustuvor bu shaharda avstriya, olmon, vengr, italyan, slavyan va boshqa xalqlarning inoq hayotini ko'rish hamda ularning milliy ohanglarini tinglash mumkin edi.

Aynan ana shu ohanglar uyg'unligiga asoslangan holda XVIII asr so'nggi choragiga kelib Venada musiqa ijodkorlari — kompozitorlarning o'ziga xos maktabi yuzaga kelgan edi. Tarixda "Vena klassik maktabi" nomi bilan ham shuhrat topgan bu ijodiy maktab an'analari dastlab Yyozef Gaydn (1732— 1809) va Wolfgang Amadey Mosart (1756—1791) musiqa asarlarida qaror topib, keyinchalik ularning yosh zamondoshi Lyundvig van Betxoven (1770—1827) tomonidan ijodiy davom ettirilgan edi⁴.



Y. Gaydn



V. Mosart



L. Betxoven

⁴ Oqilxon Ibraximov, Jamil Sidirov Musiqa 7-sinf uchun darslik T., 2008 92-bet

Ushbu maktab namoyandalari jahon musiqa madaniyatini sonata, kvartet, simfoniya kabi yirik cholgʻu musiqa asarlari bilan boyitishga muyassar boʻldilar.

Vena klassik maktabi kompozitorlari ijodida simfoniya janrining mumtoz shakli ham uzil-kesil shakllandi va ravnaq topdi. Shunga koʻra bu turdagi simfoniya toʻrt qismdan iborat turkumli asar boʻlib, uning ilk qismi tez surʼatda (sonatnoe allegro), ikkinchi qismi sokin va vazmin, uchinchi esa raqs (menuet, skerso) xarakterida va nihoyat yakuniy toʻrtinchi qismi joʻshqin final tarzida yangragan. Odatda, bu kabi simfonik asarlarni shunga ixtisoslashgan simfonik orkestr ijro etadi.

Vena klassik maktabi namoyandalaridan Y.Gaydn yuzdan ortiq, V.Mosart qirq bitta, L.Betxoven esa toʻqqizta simfoniya turkumlarini ijod etgan.

Vena klassik maktabi kompozitorlari opera sanʼatini ham sermazmun asarlari bilan boyitishga va shu asnoda uni rivojlantirishga oʻz hissalarini qoʻshganlar. Bunga V.A.Mosartning “Figaroning uylanishi”, “Sehrli nay”, “Don Juan”. Betxovenning “Fidelio” operalari yorqin nomunalardir.

Vena klassiklari asarlarining shakli va mazmuni yuksak darajaga yetgan estetik birlikni tashkil etar edi. Ayni vaqtda mavzular materiali hyech qachon abstrakt, neytral-betaraf boʻlgan emas; aksincha, bu material obrazlarining yaqqolliigi, maʼnodorligi, individual xarakterliligi bilan ajralib turadi va shuning uchun ham tinglovchi ongiga mahkam oʻrnashib, esda saqlanib qoladi.

Biroq, Vena klassiklari mavzularining individual xarakterliligi hamisha umumlashtirilishi bilan payvasta boʻlib ketadi: bu klassiklar hayotdagi tasodifiy, yakka bir hodisani qanday boʻlsa shundayligicha tasvirlab bermasdan, balki koʻpdan-koʻp odamlarning tushunishiga oson boʻlgan tipik, muhim hodisalarni badiiy jihatdan umumlashtirib, gavdalantirib berishadi. Mana shuning uchun ham Vena klassiklarining musiqasi eng keng tinglovchilar doiralarida hanuzgacha hammaga manzur boʻlib keladi ⁵.

XVIII asr Avstriya tarkibiga koʻpdan-koʻp xalqlar yashaydigan turli-tuman elu yurtlar: poytaxti Vena boʻlmish asl Avstriyaning oʻzi, Vengriya, Chexiya,

⁵ Popova T.V. Zarubejnaya muzika XVIII veka. M.1976 95-bet

Moaviya, Slovakiya, Krayna, Galitsiya, Xorvatiya, Sloveniya, Shtiriya, Bosniya, Dalmatsiya, Gersegovina, Istriya, Sileziya, Triol va boshqalar kirar edi. Bundan tashqari, Italiyaning bir qismi ham Avstriya hukmdorligi ostida edi. Parcha-parcha yerlari “jonli ipda chatib tikilgan” shu sababdan ham “quroq” imperiya deb atalgan mana shu butun imperiya o‘z aholisining milliy tarkibi jihatidan nihoyat darajada xilma-xil edi: bu yerda avstriya nemislari ham, vengrlar ham, turli-tuman slavyan xalqlari ham bor edi. Bu narsa Avstriya badiiy madaniyati jumladan, musiqa madaniyatining tabiatan o‘ziga xos va ko‘p millatli bo‘lib qolishiga olib keldi, musiqani hammadan ko‘p sevadigan yevropa shaharlarining biri deb nom chiqargan Vena shu madaniyatning poytaxti bo‘ldi.

Vena ko‘chalarining chorrahalarida, uning bog‘-rog‘larida, katta-katta restoranlari va kichik-kichik qahvaxonalarida, shaharning markaziyu chetlarida, atroflarida, aslzodalarning salonlari va byurgerlar orasidagi bayramlar hamda do‘stlik kechalarida, xullas hamma joyda musiqa yangrar edi, busiz Venaning hayoti va turmushini tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ko‘p millatli imperiyaning hamma tomonlarida xalq musiqachilari, ko‘pincha kichikroq cholg‘u ansambllariga birlashgan holda, yig‘ilib, Venaga kelaverar edi.

Shahar ko‘chalari har xil xalqlarning qo‘shiqlari, diverstimentlar, kassatsiyalar, noktyurnlar, ashula va raqslarning ovozlari bilan to‘lar edi. Eng ommaviy va sevikli raqslarning biri uch hissali raqsdan iborat avstriycha qishloq lendleri edi, vals keyinchalik shundan kelib chiqqan. Janubiy va shimoliy nemis, vengr, chex, italyan, tirol elementlari va boshqalardan tarkib topgan mana shu qorishmaning hammasi XVIII asr ikkinchi yarmining oxirigacha Vena professional kompozitorlarining musiqasi uchun ohang zamini bo‘lib xizmat qildi ⁶.

XVIII asrda Avstriya aholisining xilma-xil qatlamlarida rasm bo‘lgan turmushga oid xalq musiqasidan tashqari Venaning professional konsert va musiqa-teatr hayoti keng rivoj topdi. Vena metsenatlarining, turli aslzoda mansabdorlarning saroylarida yoki teatr zallarida tashkil etilgan katta konsertlar “musiqa akademiyalari” deb atalar edi. Mana shunday konsert-akademiyalarda

⁶ Levik B. Chet el musiqasi /T.G‘afurbekov tarjimasi / T.1987 64-bet

mashhur san'atkorlar ishtirok etardi. Vena akademiyalarining ko'pdan-ko'p tinglovchilari Motsart ijodiga qoyil qolishgan, XIX asr boshlarida Betxoven Venada konsertlar berib, bularda o'z opera va simfoniylariga dirijerlik qilgan va yakkaxon ijrochi bo'lib chiqqan.

Opera teatrlari ravnaq davriga kirgan edi. yevropaning hamma joyida bo'lganidek, Venada ham italyancha opera hukmronlik qildi, o'sha zamonga kelib bu opera xalqaro ahamiyatga ega bo'lib qoldi. Kaldar, Lotti, Porpora, Bononchini, Gasse operalari teatr repertuarini to'ldirib yubordi. Biroq, xuddi shu Vena teatrida XVIII asrning 60-yillarida islohot qilingan Glyuk operalari birinchi bor qo'yildiki, buning o'zi Avstriya poytaxtida opera-teatr san'ati yuksak darajaga ko'tarilganidan dalolat beradi. Venaning o'zida esa, demokratik ideologiya kuchayib borganligi va saroy hamda aslzodalarning kosmopolitik an'alariga o'zini qarshi qo'ygan ilg'or milliy madaniyat rivojlanganligi munosabati bilan, asosan avstriycha xalq teatriga izchil bog'langan milliy zingshpil katta ahamiyatni kasb etadi; Umlauf, Dittersdorf, Motsart, Myuller zingshpillari milliy opera san'atining rivojlanishida muhim hodisa bo'ldi.

Vena musiqa madaniyati – turmushga oid xalq musiqasi, professional kompozitorlar musiqasi, opera musiqasining ravnaq topishi Vena klassik maktabining vujudga kelishi uchun barakali va qulay bir zamin bo'ldi, bu maktab davrning barcha ilg'or yutuqlarini yakunlab berdi va jahon musiqa san'atining qo'lga kiritgan zo'r muvaffaqiyati bo'lib qoldi.

Motsartning ko'p qirrali ijodiy faoliyatida fortepiano musiqasi, opera va simfoniylari eng ko'zga ko'rinarli joylardan birini egallaydi. Motsartning klavesin, so'nggi yillarda esa fortepiano chalish va bularda badiha qilish san'ati beqiyos edi. Uning yosh bolalik davridan boshlab ko'pdan-ko'p konsertlarda chiqqani shundan dalolat beradi, o'sha konsertlari turli mamlakatlarda tinglovchilarning zavq-shavqini oshirib, ularni hayajonga solar edi. Motsart o'z ijodini ham ana shu sozga kattagina diqqat-e'tibor berdi; yakka fortepiano uchun yozilgan asarlariga yoki fortepiano aktiv ishtirok etib boruvchi ansambllarining musiqasiga kompozitor qanchadan-qancha ilhomini baxsh etdi.

Yakka fortepiano uchun yozilgan asarlar Motsart musiqasining dilrabo sahifalaridan biridir; bular uning ijrochilik faoliyati bilan juda mahkam bog‘langan. Hammadan avval Motsartning vokal musiqasida bo‘lsin, cholg‘u musiqasida bo‘lsin italyancha belcanto uslubini tadbqiq etib, ohangdorlikni ijodkorlik va ijrochilik prinsiplaridan biri qilib olganini aytib o‘tish kerak. Lekin torli sozlar o‘z tabiatiga ko‘ra ohangdor tovush beradigan bo‘lsa, fortepiano musiqasi xususida shu sozning uzuq-uzuq sadolar berishini bartaraf etish vazifasi kompozitor oldida ko‘ndalang bo‘lib turardi.

Motsart ixtiyorida uzuq-uzuq va kuchsiz sado borishi bilan ajralib turadigan, qadimgi klavesin hamda klavikordlar bilan raqobatda hali batamom ustun kelmagan juda nomukammal soz bor edi. Motsart ana shu soz imkoniyatlari doirasida ham ijrochi, ham kompozitor tariqasida imkoni boricha ko‘proq ohangdorlikka yetishmoq uchun harakat qildi.

Gaydn musiqa ijodida ham xuddi shunday narsa kuzatiladi, biroq Motsart kuylari kelishtirib ijro etishni talab etuvchi alohida bir ohangdorlik bilan ajralib turadi, shu xildagi faktura esa eng asosiy prinsiplardan biri bo‘lib qoladi.

An‘anaviy shaklda yozilgan sonatalar, variatsiyalar va rondolar bilan bir qatorda Motsartning fortepiano ijodiyotida tabiatan badihadan iborat bo‘lib, erkin tuzilgan fantaziyalar kattagina rol o‘ynaydi. Bu asarlar ijrochi sifatidagi Motsartning badihalash san‘ati bilan, shuningdek, I.S.Baxning improvizatsion asarlarini chuqur o‘rganish bilan juda mahkam bog‘langan. Motsartning ilk sonatalari “nazokatli uslub” deb atalmish uslubning “hissiyotli” xususiyatlari hali to‘la-to‘kis aks ettiradi va F.E. Bax hamda I.K.Baxlarning ta’siri ostida yozilgani sezilib turadi.

Motsartning ijodiy maqsadlariga yaqin italyan opera ohangdorligi bilan bir qatorda uning fortepiano asarlarida yuqorida aytib o‘tilgan kantabillikni rivojlantirib borish uchun, shak-shaubhasiz yordam berar edi.


Motsart kamer-cholg‘u ijodi nihoyat darajada boy va xilma-xildir. Uning torli sozlar kvarteti uchun yozgan eng yaxshi asarlari qatoriga Gaydnga bag‘ishlangan oltita kvarteti kiradi; bular 1783 yil bilan 1785 yillar orasida, shu

kompozitorlar do'stona munosabatda bo'lgan davrda yozilgan. Kvartetlarida rosa yetilgan badiiy mahorat, boy mazmun va ta'sirchan emotsional ifoda kuchi barq urib turadi. Bu asarlarning umumiy xususiyati rivojiga yetgan, nozik polifonik fakturasi borligi, ijroda barcha sozlarning aktiv ishtirok etib borishi va ansamblda yetakchi bo'lmish birinchi skripka hukmron holatda bo'lgani holda mavzu materialining rivojlantirib berilishidir.

Gaydnning keyingi davrlarda yozgan kvartetlarida ham xuddi shunday prinsip ko'zga tashlanadi. Ammo bu kvartetlar bir necha yil keyin yozilgan. Boz ustiga mazmunni chuqurlashtirish va shakl hosil qilish ko'lamlari ma'nosida olganda Motsart Gaydndan o'zib ketgan.

1.2. Y. Gaydn ijodining shakllanishi

Musiqasana'atining deyarli hamma janr va shakllarida haddan tashqari katta ijodiy meros qoldirgan Gaydn kompozitor opera, messa, oratoriya, simfoniya, konsertlar, har xil tarkibdagi cholg'u ansambllari uchun kamer asarlar, yakka sozda ijro etish uchun asarlar, xor, vokal ansambllari uchun qo'shiqlar yozgan, asosan cholg'u musiqasi sohasida haqli suratda jahonga manzur bo'ldi. Ijodining tarixiy va badiiy qimmatini xuddi shu soha hammadan ko'ra ko'proq belgilab beradi. Sonatali-simfonik sikl Gaydn ijodida cho'qqisiga yetdi. Shuning uchun ham Gaydn klassik simfonik va kvartet asoschisi bo'lib tarixga kirgan.



Yozef Gaydn Frans (1732 yil 31-mart Rorau qishlog'i, Jan. Avstriya – 1809 yil 31-mayda Vena) - Avstriya kompozitori, kapelmeyster, Vena klassik maktabining yirik vakili. 24 ta opera, 100 dan ortiq simfoniya, turli cholg'ular uchun 35 konsert, diniy kantata va messalar, fortepiano sonatalari, turli tarkibdagi kamer ansambllar (shu jumladan, 83 torli kvartet) va boshqa asarlariing muallifi.

“Dunyoning yaratilishi” (1798) va “Yil fasllari” (1801) oratoriyalari hamda 1796—1802 yillarda yaratilgan messalar Gayd ijodining cho'qqisidir. Ayrim

asarlari (“Kutilmagan uchrashuv” operasi, 1775)da Shark, mavzularini ekzotik tarzda ifoda etgan. Gayd o‘z ijodida avstriya, venger, xorvat, italyan va boshqa xalqlar qo‘shiqlari va raqs kuylaridan keng foydalangan. Asarlariga yorqin va jozibali obrazlarning xilma-xilligi, musiqa tilining soddaligi bilan birga g‘oyaviy butunlik, musiqa rivoji usullarining mukammalligi xos. XX-asrda Kyolnda “Gayd instituti” tashkil etilgan⁷.

Yozeif Gaydn Vena klassik maktabining buyuk namoyandasi edi. XVIII asrning 50-yillarida boshlagan kamer va simfonik asarlar ustidagi ijodiyoti cholg‘u musiqaning yangi janr va shakllari qaror topishiga yo‘l ochdi. Gaydnning yuksak yutuqlari–London simfoniyalari va so‘nggi kvartetlari- o‘nlab yillar davom etib, uzoq evolyusiyani bosib o‘tgan kompozitor ijodining ajoyib natijasidir. Gaydnning ilk asarlarida italyan, chex, mangeym, nemis ustozlarining cholg‘u musiqasi bilan bir qatorda cholg‘u-simfonik tafakkurining yangi pritsiplari qaror topdi, musiqada klassik uslub shakllanib bordi: ijodiyotining so‘nggi davridagi asarlari jahon klassikasining yuksak yutuqlari jumlasiga kiradi.

Gaydnning hayoti va ijodiy faoliyati XVIII asrning musiqali turmushi uchun tipik manzarani hosil qiladi: bolalik yillarida cherkovdagi bolalar xorida ashula aytdi va kompozitorlik “hunarini” o‘rgandi, so‘ngra saroyda ishladi va talaygina yillar davomida orkestr kapellasiga boshchilik qildi. Biroq, uzoq yillar yashab, ko‘p umr ko‘rgan Gaydn yoshi ulg‘ayib, saroydagi xizmatini tark etganidan keyingina hammadan yuksak mahoratga yetdi.

Shunday qilib, Gaydn ijodiy hayoti tabiiy ravishda uch davrga bo‘linib qoladi, shu bilan birga uchinchi davri hammadan ko‘ra muhim va salmoqli bo‘lib hisoblanadi. Mana shu uchala davrni quyidagicha ta’riflash mumkin: knyaz Estergazi xizmatiga kirguncha o‘tgan badiiy shakllanish yillari (1751-1761), knyaz Estergazida kapelmeystr va kompozitor bo‘lib ishlagan yillari (1761-1791), hayoti va ijodining so‘nggi yillari – yuksak badiiy mahorat davri (1791-1809).

Yosh Gaydnning badiiy jihatdan yetilib borishidagi keyingi muhim davr uning cherkov xorida–avval Dunay bo‘yidagi Gaynburg shahrida, so‘ngra

⁷ Levik B.V. Chet el musiqa tarixi 2-qism T., 1984 107-bet

Venadagi avliyo Stefan jomesida ishlashi bilan bogʻlangandir. Xor repertuarida oʻtmish asrlardagi Avstriya, Niderlandiya va Italiya kompozitorlarining polifonik uslubda yozilgan koʻpdan-koʻp diniy asarlari bor edi; shularning orasida “qatʼiy uslubdagi” kontrapunkt sanʼatining shohona asarlari ham boʻlgan. Shunday qilib, Gaydn qadimgi ustozlarining asarlarini ijro etishda bevosita ishtirok etib, polifonik sanʼat sir-asrorlarini amalda bilib oldi ⁸.

Boʻlgʻusi kompozitorning oʻziga ham keyinchalik Vena koʻchalarida tungi qoʻshiqlarni ijro etishda qatnashishga toʻgʻri kelgan, bu–Venadagi demokratik turmush musiqasi uning bevosita yaqinlashuviga olib keldi. Shu bilan bir qatorda Gaydnning badiiy jihatdan shakllanishida Venadagi badavlat mansabdorlarning ziyofatlari paytida yangrab turadigan professional cholgʻu musiqasi gʻoyat katta rol oʻynadi. 19 yashar kompozitorning ilk asarlaridan biri “Asmodey, yoxud Yangi oqsoq iblis” degan zingshpil boʻldi.

Gaydnning bir nechta dastlabki simfoniylari ham xuddi shu davrga mansub, bularni u 1759 yildan boshlab, chex grafi Y.F.Morsin saroyida kapelmeysterlik lavozimida ishlagan paytida yozgan. Shunday qilib, atrofdagi musiqali hayotning eng muhim va kerakli tomonlarini oʻzlashtirib olish Gaydn ijodiyoti dastlabki davrning eng asosiy natijasi mana shu boʻldi. Kvartetlar bilan simfoniylar kompozitor ijodiyotining asosiy yoʻnalishini belgilab berdi.

Gaydn ijodiy faoliyatining ikkinchi davri knyaz Estergazi saroyida kapelmeyster va kompozitor boʻlib ishlashi bilan bogʻliq. Estergazi degan vengr zodagonlarining nomi faqat Gaydn tarjimai holidagina emas, balki boshqa buyuk kompozitorlarning tarjimai hollarida ham uchraydi.⁹

Pavel Anton Estergazining Gaydn boshchilik qilgan orkestr kapellasi knyazning Eyzenshtadt shahridagi qarorgohida joylashgan boʻlib, avval 14 kishidan iborat edi. Orkestr hayʼatiga, toʻrtta skripka, alt, violonchel, kontrabas, fleyta, 2 ta goboy, 2 ta fagota, 2 ta valtorna kirardi, bu orkestr uchun Gaydn

⁸ Levik B. Chet el musiqasi /T.Gʻafurbekov tarjimasi / T.1987. 108-bet

⁹ Levik B.V. Muzikalnaya literatura zarubejnix stran. Vip.P.M.1979. 74-bet

simfoniylar, divertismentlar va boshqa asarlar yozib berdi. Messalarni ijro etish uchun bu asboblarga organchi va bir nechta ayol va erkak xonandalar qo‘shilar edi.

Gaydn bilan Estergazi orasida tuzilgan shartnoma tarixiy jihatdan olganda juda ham qiziq bir hujjat bo‘lib, feodal-absolyutistik tuzum sharoitlaridagi saroy musiqachisining ijtimoiy ahvolini xarakterlab beradi. Mana shu shartnomaga muvofiq, Gaydnning vazifalari jumlasiga quyidagilar kirar edi; mehmonlar kelishadigan ma’lum bir kunga to‘g‘rilab simfoniya, kvartet yoki messa yoxud qanday bo‘lmasin boshqa biror asar yozish.

Ma’muriy vazifalari juda ko‘p bo‘lishiga qaramay, Gaydn ortiq darajada jadallik bilan ijod qilar edi. Estergazi xizmatiga kirgan birinchi yilning o‘zidayoq u mana bunday programmali sarlavhali qo‘yilgan uchta simfoniya yozdi: “Subhidam”, “Tushki payt” va “Oqshom”. Bu simfoniylarida kompozitorning kelgusida yozilajak, yetuk asarlariga xos bo‘lgan xususiyatlar – musiqa asosining xalqchilligi, yumor, dinamik va mavzuli kontrastlari ro‘y-rost ko‘zga tashlanadi.

Pavel Anton Estergazi vafotidan keyin uning og‘li va vorisi – musiqaga juda ishtiyoqmand bo‘lib, Versalning o‘zi bilan raqobat qilishga ahd qilgan Nikolay Estergazi Eyzenshtadtga yaqin joyda o‘ziga hashamatli saroy qurigandan keyin ahvol keskin o‘zgardi. Bu saroyda u ikki teatr – opera teatri bilan qo‘g‘irchoq teatri qurdi, kapella sostavini 25 kishigacha yetkazdi. “Esterxaz” deb atalgan yangi qarorgohiga knyaz yoz oylari o‘zining butun mulozimlariyu malaylari bilan kapellasi va kapelmeysteri bilan birga ko‘chib ketar edi.

Shu davrda yozilgan asarlarining juda ko‘pchiligi quvnoqligi, jo‘shqinligi, xalq raqslariga o‘xshashligi bilan ajralib turadi, ularda hazil-mutoyiba, yumor ko‘p. Lekin onda-sonda, ayniqsa, 70-yillardagi asarlarda Gaydn musiqasiga g‘amgin ruh, mungli emotsiyalar oralaydiki, bu- uning shaxsiy qalb kechinmalari bilan, knyaz kapelmeychteri lavozimida xo‘rlik keltiradigan ahvolda bo‘lishi bilan bir qadar bog‘langandir. Ba’zi hujjat ma’lumotlari ko‘plarning “Xushchaqchaq Gaydn bobo” ning hayoti go‘yo bir maromda, osoyishta o‘gach, degan fikrini rad etadi. Hamma kunlar bir-biriga o‘xshash bo‘lib, bir taxlitda o‘tgan hayot sirtidan osoyishtadek bo‘lib ko‘rinsa-da, o‘zining bir qarolldek bo‘lib yurganiga ko‘nishga

majbur bo'lgan. Gaydn qanchadan-qancha qaynoqlarga tushar edi. Xatlaridan birida u ma'yuslik bilan mana bunday deydi: "Endi o'zimning qoq-quruq joyimda deyarli odam zotini ko'rmay, g'amga cho'mib o'tiribman... Oxirgi kunlarimen kapelmeystermanmi yoki kapeldinermanmi, bilmay qoldim... doim bo'lib yashash og'irda, ko'ngilga, axir..."¹⁰.

Juda o'zboshimcha knyazdan necha qaytalab ko'ngli ranjigan va bekordan bekorga ta'nayu-nadomatlar eshitgan Gaydn ko'tarinki ruh va jo'shqin quvonchga to'la simfoniyalari bilan diverstismentlari orasida "Motam simfoniyasi", "Xayrlashuv simfoniyasi" va boshqalar singari asarlar paydo bo'ldi.

Gaydnning Parij simfoniyalari ijodining dovrug'ini Avstriya chegaralaridan ancha uzoqqa yetkazdi endi bo'lsa, ular Umum yevropa mulki bo'lib qoldi. yevropa poytaxtlarining konsert estradalarida Gaydn simfoniyalarining tag'in ham rasm bo'lishi 90-yillarning birinchi yarmida uning Londonga ikki bor qilgan safari bilan bog'liqdir, bu yerda u o'zining "London simfoniyalari" deb atalgan yangi simfoniyalariga zo'r muvaffaqiyat bilan dirijerlik qildi. 60-70 yillarda Gaydn opera janriga ham murojaat etdi. Goldoni tekstlariga yozgan ikkita opera buffa si "Dorixonachi (1768)" va "Oy jahoni" (1777) alohida ajralib turardi. Bundan tashqari, 1791 yili Gaydn London uchun "Orfey va Evridika" operasini yozdi.¹¹

Estergazidagi xizmatdan ketish va Londonga birinchi bor safar qilish bilan Gaydn ijodining uchinchi, so'nggi davri boshlanadi.

Angliyaning London shahrida Gaydn Gendel oratoriyalarini tingladi, bu oratoriyalarni vaqt-vaqtida ijro qilib turish, u yerda odat tusiga kirgan edi. Shu oratoriyalar taassuroti ostida Gaydn Venaga qaytib kelgach, yangi kvartet, trio, sonata, messa va qo'shiqlar bilan bir qatorda ikkita monumental oratoriya – "Olamning yaratilishi" va "Yil fasllari" yaratdiki, bular uning so'nggi yirik asarlari bo'ldi. "Olamning yaratilishi" oratoriyasi 1802 yili Peterburgda Filarmoniya jamiyati konsertida yangradi. "Olamning yaratilishi" oratoriyasi garchand qadimgi

¹⁰ Levik B. Chet el musiqasi /T.G'afurbekov tarjimasi / T.1987. 112-bet

¹¹ Popova T.V. Zarubejnaya muzыka XVIII veka. M.1976. 101-102 bet

ahd syujetiga yozilgan bo'lsa-da, bibliyada tasvirlangan qahramonliklar Gaydnni kam qiziqtirar edi.

Gaydn hayotining so'nggi yillari ijodiy sukutda o'tdi. Bu – haddan tashqari zo'r ijtimoiy larzalar zamoni edi. Fransuz revolyusiyasi bo'lib o'tdi; Napoleon Bonapart armiyalari yevropaning hamma yog'ini izg'ib chiqishdi. Mana shularning hammasi o'zining olgan tarbiyasi jihatidan, o'rganishlari va dunyoga qarashlari jihatidan boshdan-oyoq o'tmish XVIII asrga mansub bo'lgan Gaydnni cho'chitar edi. Gaydn Venada 1809 yili vafot etdi.

1.3. Y.Gaydnning simfoniya oratoriya va operalarining tarixiy ahamiyati

Vena klassik maktabi yetuk simfonizmining asosiy uslublari shakllanishi jarayonida Gaydnning ilk simfoniylari mangeymli ustozlarning simfoniylari bilan bir qatorda, endi muhim xalqa bo'lib qolgan davrga taalluqlidir. Gaydnning keyingi simfoniylari endi Motsartning barcha simfoniylari mavjud bo'lgan, yosh Betxoven esa fortepiano sonatalari va kamer ansambllarida o'z simfonik tafakkuri prinsiplarini ishlab chiqib, Birinchi simfoniya yar yaratishga yaqinlashib qolgan chog'da yozilgan. Shunday qilib, Gaydn simfoniylari ulug' kompozitor ijodiy yo'lini o'rganish uchungina emas, balki umuman, XVIII asr klassik simfonizmining shakllanish va rivojlanish jarayonini tushunib olish uchun ham diqqatga sazovordir.

Gaydnning ilk simfoniylari mohiyat e'tibori bilan olganda shu simfoniylar bilan bir vaqtda yozgan kamer musiqalaridan hych bir farq qilmaydi va o'sha zamon uchun rasm bo'lgan turmushga oid xursandchilik janrlari doirasidan nariga o'tmaydi. Obrazlar va his-tuyg'ularning birmuncha chuqur dunyosini ifoda etuvchi asarlari 70-yillardagina paydo bo'ladi.

Ilk simfoniylari orasida 1772 yili yozilgan va mazmuni, obrazlarining doirasi jihatidan ham, kompozitsion tuzilishi jihatidan ham keskin ajralib turadigan "Xayrlashuv simfoniya" alohida diqqatga sazovordir. Unda Motsart va hatto Betxoven musiqasining hayajonga soluvchi sahifalariga yaqin turadigan

hayajonli-ta'sirchan obrazlar hukmronlik qiladi. XVIII asr simfonik musiqasida g'oyat darajada kam uchraydigan fiss-moll tonallik ham diqqatini o'ziga jalb qiladi.

Biroq, Gaydn simfonizmining eng yuksak yutug'i 12 ta "London simfoniylari"dir. Bittasini hisobga olmaganda bularning hammasi major tonalliklarda yozilgan. London simfoniylari, odatda, og'ir sur'atli, tantanali, xayolni oladigan yoki lirik, fikrga cho'mdiradigan xarakterdagi qisqacha muqaddima bilan boshlanadi. Vazmin sur'atli ana shunday muqaddima aslida simfoniyaning birinchi qismi bo'lib hisoblanadigan keyingi Allegro ga keskin kontrast bo'lib tushibgina qolmay, unga zamin ham tayyorlab boradi. Bu xildagi muqaddimalar I.S.Baxning klavir uchun inglizcha syuitalari, orkestr syuitalarining kirish qismlari bilan ham bog'langandir.

Gaydnning yes-dur simfoniyasi №103 "Litavrlar tremolosiga ega" muqaddimasining, mavzusi o'zining asosiy ko'rinishida birinchi qism va kodasida va boshqacha bir qiyofada rivojlovda yana bir bor namoyon bo'ladi. D-dur simfoniya-siga muqaddima mavzusidan birinchi qism bosh partiyasining mavzusi yuzaga chiqadi ¹².

Gaydn simfoniylarida rivojlovlar ancha ravnaq topdi. Bu sohada Gaydn joriy etgan yangilik shundan iboratki, rivojlov ohangi ajratib olish yo'li bilan tuzib boriladi. Gaydnning "London simfoniylari"ning uchinchi qismlari hamisha "Minuetto" deb ataladi. Biroq, Gaydn nazokatli, takabbur ruhdagi saroy ahli raqsidan ancha nari ketdi. An'anaviy menuetning uch hissali o'lchovi saqlanib qoladi.

Klassik menuetning shakli hamisha murakkab uch qismli bo'lib, aniq reprizasida va odatda kontrast bo'lib tushadigan o'rta qismi bor, chunki menuetning bosh va oxirgi hamda asosiy qismlarida forte dinamikasi, birmuncha quyuq cholg'ulanishi hukmronlik qiladi, ana shu cholg'ulanishdagi sforzando aksentlari musiqaga bir qadar vazminroq xalq raqsi xarakterini beradi.¹³

¹² Levik B.V. Muzikalnaya literatura zarubejnix stran. Vip.P.M.1979. 82-bet

¹³ Levik B. Chet el musiqasi /T.G'afurbekov tarjimai / T.1987. 129-bet

Gaydn simfoniylarining xotimalarida janr obrazlari diqqatni o'ziga tortadiki, bular ham xalq-raqs musiqasiga borib taqaladi. Xushchaqchaq simfoniya tez sur'atli xotima tugallaydi. Gaydnning "London simfoniylari"da ba'zi xotimalar sonata shaklida yozilgan, lekin, rondo-sonata shakli ko'proq uchraydi. D-dur simfoniya xotima bosh partiyasining mavzusi shaklan o'zgartirilgan ommaviy xalq qo'shig'idan iboratdir; u ham "Azizim, yonimda bo'l" degan chex xalq qo'shig'iga juda yaqin.

Gaydn "London simfoniylari"ning deyarli barcha xotimalarida simfoniya to'qimasini yanada ko'proq jonlantiradigan variatsiyali va polifonik rivojlov usullardan keng foydalanadi. Gaydn simfoniylarida orkestr odatda juft tarkibda: 2 ta fleyta, 2 ta goboy, 2 ta fagot, 2 ta fagot, 2 ta valturna, 2 ta truba, bir juft litavra, torli kvintet bo'ladi; "og'ir" mis asboblardan mutlaqo yo'q.

Gaydnning so'nggi ikkita "London simfoniylari" partituralaridagina bir juft fleyta, bir juft goboy va juft fagot bilan birga 2 ta klarnet bor.¹⁴

Simfoniylardan tashqari Gaydn fortepiano, skripka, violonchel uchun, orkestr jo'rligidagi turli puflama sozlar uchun 50 ga yaqin konsertlar yozgan. Odatda, uch qismli sikldan iborat bo'lgan Gaydn konsertlari yakka holda ijro etiladi va konsert-simfoniya musiqasi prinsiplarni o'ziga mujassam etadiki, bu narsa umuman shu janrga xosdir. Yakka sozning o'sha zamonda ko'rsatishi mumkin bo'lgan mohirlik va ifoda vositalaridan mumkin qadar ko'proq foydalanilgan.

Orkestrning yangrashi jihatidan, ko'lami hamda mavzu materialni rivojlantirib borish usullari jihatidan olganda, Gaydnning ijodiy yetuk davrida yozgan konsertlari simfoniylaridan qolishmaydi.

Simfoniya va yakka soz konsert janrlari Gaydndan oldin ham mavjud bo'lgan, lekin yevropa simfonizmi endigina rivojlanib kelayotgan davrda Gaydn ijodi uning yakunlaridan biri bo'ldi.

Gaydnning vokal asarlari jumlasiga messalar va "Stabat mater" kiradi. Bu asarlar musiqasi to'la-to'kis dunyoviy xarakterga ega ekanligi bilan ajralib turadi,

¹⁴ Patina S.V. Iz istorii zarubejnoj muziki. M.1977. 130-bet

ba'zan ancha kuchli drammatizm darajasiga ko'tariladi va cherkovdan ko'ra konsert zali sharoitiga ko'proq mos keladi.

Gaydnning **vokal asarlari** orasida dastlabki o'rinlarning birini oratoriyalar egallaydi. 70-yillardayoq Gaydn "Toviyning qaytishi" oratoriyasini yozgan edi. Biroq, shu janrdagi eng ajoyib, monumental asarlar ijodiy yo'lining oxirida yozilgan: "Olamning yaratilishi" va "Yil fasllari" nomli ikkita katta oratoriyalardir.¹⁵

Bular mazmunining asosida insonning gullab-yashnayotgan tabiat kuchlari qo'ynida shod-hurram va baxtiyor yashashi g'oyasi yotadi. Shuning uchun Gaydn oratoriyalarida turmushga oid janr elementlari va tasviriylik katta rol o'ynaydi.

"Olamning yaratilishi" oratoriyasi Jon Miltonning "Yo'qotilgan jannat" dostoni syujetiga yozilgandir, bu doston syujeti o'z navbatida olamning yaratilishi to'g'risida Bibliyadagi mashhur afsonadan olingan.

Oratoriya uch qismdan iborat: dastlabki ikki qismi jonsiz va jonli tabiat(osmon, yulduzlar, suv va quruqliklar, o'simliklar, hayvonlar va odam)ning birma-bir yaratilganligini bayon qiladi; uchinchi qismi ilk insonlar odam. Ato va Momo Havoning yerdagi jannatda baxtiyor va orombaxsh hayot kechirganini tasvirlaydi. Oratoriya tekstida tangri sha'niga aytiladigan hamdu sano ko'p bo'lishiga qaramay, musiqasi juda quvnoq bo'lib, dunyoviy xalqchil xarakterga ega va London simfoniyalari bilan kvartetlariga o'xshab ketadi. Undagi asosiy narsa hayotbaxsh kuch shiralariga to'lib borayotgan qudratli tabiatni, shuningdek, Odam Ato bilan Momo Havo obrazlarida ideallashtirilib tasvirlangan inson baxt-saodatining eng oliy nuqtasini tarannum etishdir.

Oratoriyada aksari sodda ko'rinsa ham, yorqin programmali tasviriylik ko'p. Chunonchi, oratoriyaning orkestr muqaddimasining o'ziyoq olamda yaratuvchanlik boshlanmasidan ilgari hukm surgan bosh-boshdoqlikni tasvir etadi. Ladni notayanchlikga o'xshatib ko'rsatuvchi xromatizmlar, dissonansli to'xtamalar tonal og'ishmalarning mo'l-ko'lligi, - mana bularning hammasi musiqaga shunday bir

¹⁵ Levik B.V. Istoriya zarubejnoj muziki M.1966. 139-bet

badihali erkinlik boradiki, buni mazkur holda Gaydnning allaqanday betartib, uyushmagan bir narsani tasvirlashga uringani bilan izohlash mumkin.

Oratoriya boshida lad bilan dinamikaning to'satdan o'zgarib qolishi zulmat va yaraqlab porlagan nur kontrastini hosil qiladi.

Tasviriylikka boshqa misollarni ham keltirib o'tish mumkin, lekin gap faqat shularda emas. "Olamning yaratilishi" oratoriyasi musiqasidagi muhim narsa tabiatning gullab-yashnayotganini, qudrati va go'zalligini shod xurramlik bilan qarshilab oluvchi insondir.

"Yil fasllari" oratoriyasi ham ingliz yozuvchisi Jeyms Tomsonning shu nomli dostoniga asosan baron van Sviten tomonidan yaratilgan librettoga yozilgandir. Bu oratoriyada qishloqdagi dehqonlar hayoti, dala ishlari, o'tloq va o'rmonlarning go'zal manzaralari tasvirlanadi. Oratoriyada yilning fasllariga yarasha to'rtta qism bor: "Bahor", "Yoz", "Kuz", "Qish". Rejasi va uslubi umuman bir bo'lgani holda, har bir qismi o'z xarakteri, o'z koloritiga ega. "Olamning yaratilishi" oratoriyasida bo'lganidek, bu o'rinda ham tovushnavizlik ko'p; momaqaldiroq, ov, xo'roz qichqirig'i, baliqchalarning shaloplashi, baqalarning vaqillashi, chigirtkaning chirillashi va boshqa ovozlarni musiqada tasvirlash shular jumlasidandir. Biroq, tasviriylilik asosiy narsani to'sib qo'ymaydi: oratoriyaning boshdan oyog'i inson mehnatini sharafllovchi ilhombaxsh madhiyadir; odamlar baxtu saodatini va hayotning ma'nosini mehnatda topishadi; mehnat bilan undirilgan nozu ne'mat yayrab xursandchilik qilishga vaj bo'ladi.¹⁶

Oratoriyaning asosiy g'oyasi xalq-dehqonlar turmushiga oid mavzuda bo'lgan, quvnoqlik mavj urib turadigan Gaydn musiqasining obrazli tuzilishida to'la ifodasini topadi. Yakunlovchi nomerlarida falsafiy g'oya mavjud: yil fasllari qay tariqa bir-biri bilan almashib boradigan bo'lsa, inson hayotida ham o'smirlik (bahor), navqironlik (yoz), yetuklik (kuz), qarilik (qish) pallalari xuddi shunday navbatlashib boradi. Muqarrar nihoya vaqti keladi. Biroq, hayotning qadriga yetib yashash insonga baxt-saodat keltiradi.

¹⁶ Levik B.V. Muzikalnaya literatura zarubejnix stran. Vip.P.M.1979. 120-bet

Dehqonlar hayoti bu asarda qishloq ahli, dehqonchilik qiluvchi kishilar va ovchilarning xori hamda uchta yakkaxon xonanda, qari dehqon Simon (bas), uning qizi Ganna (soprano) va Gannani sevib qolgan yosh dehqon yigit Luka (tenor) partiyalari bilan ifodalanadi. Har bir qismning orkestr muqaddimalari katta rol o'ynadi, bularda kompozitorning dastur izohlari bor.

Gaydn qalamiga **24 ta opera** mansubdir. Bular kompozitsitorning eng yaxshi yutuqlari jumlasiga kirmaydi; cholg'u musiqasi sohasida o'zini erkin va engil his qilgan Gaydnning zarur komponentlari so'z va dramatik voqyeadan iborat bo'lgan operaga rag'bati yo'qroq edi. U asosan knyaz Estergazi saroyida bo'lgan har xil tantanalar munosabati bilan qo'yiladigan spektakllar uchun operalar yozdi va bularni Estergazi mulkidan chetga tarqaladi, deb o'ylamadi. Biroq, Gaydnning ba'zi operalari Avstriya va Germaniyaning turli shaharlarida qo'yilgan bo'lsa-da, ular sovuq kutib olingan edi.

1762 yil bilan 1783 yil o'rtasida yaratilgan Gaydn operalari asosida Goldoni, Metastazio va uncha mashhur bo'lmagan hamda el og'ziga ko'p tushmagan boshqa XVIII boshqa asr shoir va dramaturglarining italyancha tekstlari yotadi. Operalarining eng ko'p qismi italyan opera buffa an'alarida yozilgan, biroq opera seria-lari ham bor ("Atsis", "Armiyada") Londonga atalgan "Orfey va Evridika" operasi boshqalaridan ko'ra keyinroq yaratilgan.

Gaydn operalarining musiqasi uning o'zi yozgan cholg'u asarlariga qaraganda ancha orqada turadi. XVIII asr oxiri va XIX asr boshlariga mansub nemis kompozitori I.F.Reyxardt bu to'g'rida mana bunday deb yozgan edi: Gaydnning cholg'u musiqasini afzal deb bilar ekanman, o'ylaymanki, eng zo'r tanqidchilar bunga qo'shilishadi. Aftidan, uning iste'dodi vokal musiqada so'zlar bilan qisilib qoladi. Ovozlar uchun uning asarlar yozish uslubi ko'pgina xonandalar ko'ngliga yoqmaydi. Teatr – uning ishi emas". Biroq , kompozitorning ba'zi hajviy operalari qiziqish uyg'otadi va teatrlarning diqqatini o'ziga jalb etadi.

I - bob bo'yicha xulosa

Musika madaniyati kishilik jamiyati ma'naviy hayolida muhim o'rin tutadi. Chunki, musika inson qalbida go'zal tuyg'ularni uyg'otadi. uni yaxshi amallarni bajarishga chorlaydi.

XVIII asr yevropa musika madaniyatida jahonga mashhur "Vena klassik maktabi" shakllandi. Tarixda "Vena klassik maktabi" nomi bilan ham shuhrat topgan bu ijodiy maktab an'analari dastlab Yozef Gaydn (1732— 1809) va Wolfgang Amadey Mosart (1756—1791) musika asarlarida qaror topib, keyinchalik ularning yosh zamondoshi Lyundvig van Betxoven (1770—1827) tomonidan ijodiy davom ettirilgan edi.

Ushbu maktab namoyandalari jahon musika madaniyatini sonata, kvartet, opera, simfoniya kabi yirik cholg'u musika asarlari bilan boyitishga muvassar bo'ldilar.

XVIII asrning 30-40 yillaridayoq musika tarixida yangi davr boshlandi, bu davr voqeyelikni uning taraqqiyoti va ziddiyatlari bilan birgalikda aks ettirishning progressiv metodi bo'lmish simfoniya va opera qaror topishi bilan tugallandi. Yangidan-yangi shakl va janrlar paydo bo'lib boradi. Bularning shakllanish jarayonlari turli yevropa mamlakatlariga, turli milliy madaniyatlarga yoyildi.

Musika san'atining deyarli hamma janr va shakllarida haddan tashqari katta ijodiy meros qoldirgan Gaydn kompozitor opera, messa, oratoriya, simfoniya, konsertlar, har xil tarkibdagi cholg'u ansambllari uchun kamer asarlar, yakka sozda ijro etish uchun asarlar, xor, vokal ansambllari uchun qo'shiqlar yozgan, asosan cholg'u musiqasi sohasida haqli suratda jahonga manzur bo'ldi. Ijodining tarixiy va badiiy qimmatini xuddi shu soha hammadan ko'ra ko'proq belgilab beradi. Sonatali-simfonik sikl Gaydn ijodida cho'qqisiga yetdi. Shuning uchun ham Gaydn klassik simfonik va kvartet asoschisi bo'lib tarixga kirgan.

Vena klassik maktabi yetuk simfonizmining asosiy uslublari shakllanishi jarayonida Gaydnning ilk simfoniylari mangeymli ustozlarning simfoniylari bilan bir qatorda, endi muhim xalqa bo'lib qolgan davrga taalluqlidir. Gaydnning keyingi simfoniylari endi Motsartning barcha simfoniylari mavjud bo'lgan, yosh

Betxoven esa fortepiano sonatalari va kamer ansamblarida o'z simfonik tafakkuri prinsiplarini ishlab chiqib, Birinchi simfoniya yaratishga yaqinlashib qolgan chog'da yozilgan. Shunday qilib, Gaydn simfoniylari ulug' kompozitor ijodiy yo'lini o'rganish uchungina emas, balki umuman, XVIII asr klassik simfonizmining shakllanish va rivojlanish jarayonini tushunib olish uchun ham diqqatga sazovordir.

Vena klassiklari musiqiy janrlarning shunday bir yuksak tipini yaratdilar, unda butun obraz mazmunining boyligi mukammal badiiy shaklda mujassamlashgan.

II-Bob Umumta'lim maktabi 7-sinfida Vena klassik maktabi namoyondalari bilan tanishtirish uslublari

2.1. Vena klassik maktabi namoyondalari V.A. Motsart va L. Betxoven ijodi

Vena klassik uslubi Motsart operalarida yorqin ifodasini topdi. Motsartning u yoki bu operasi qaysi bir janrga va qaysi bir yo'nalishga mansub bo'lmasin, hammadan avval Avstriya madaniyatiga taalluqli bir hodisadir.



Volfgang Amadey Motsartdir. U 1756-yil 27 - yanvarda Avstriyaning kichik bir shaharchasi Zalsburgda saroy kompozitori va organchisi Leopold Motsart oilasida dunyoga kelgan. Motsartning musiqaga bo'lgan qobiliyati 3 yoshidan boshlab yaqqol sezila boshlagan. U soatlab klavesinda shug'ullanar, opasi, 8 yoshli Annaning chalgan kuylarini bir eshitishida xatosiz aynan qaytarib chalib bera olar edi.



Otasi Leopold o'g'lining musiqiy qobiliyatiga tan beradi va Anna bilan bir qatorda Volfgang bilan ham astoydil shug'ullana boshlaydi. Volfgang Motsart 6 yoshida klavesinda yaxshi chala oladigan darajaga erishadi va birinchi asarlarini, kichik hajmdagi pesalarini yoza

boshlaydi. yetti yoshga kirganda Motsart opasi Anna bilan Fransiya qirolining rezidensiyasi — Versal saroyida konsert beradi. U bir necha yil davomida Vena, Parij, London, Gana, Bryussel, Jeneva kabi shaharlarda konsertlar berdi. Otasi Leopold o'g'li Volfgangga musiqa yozish sirlari hamda kompozitsiyani mukammal o'rgatib bordi. Natijada 8 yoshli Motsartning birinchi kitobi Parijda bosilib chiqdi. Motsart o'n ikki yoshida o'zining birinchi operasini yaratdi.

Motsart butun ijodiy umrining deyarli boshidan oxirigacha operalar yozdi. Uning ilk operalari 11-12 yoshida “Mitridat, 14 yoshida Pontiya shohi” so'nggi – “Suhrlil fleyta” operasi vafot etgan yili yozilgan.

Motsartning 80-yillarda yaratilgan eng muhim operalari xronologiya bo'yicha joylashtirilsa, o'ziga xos bir simmetriya kelib chiqadi. Shu o'n yillikning boshi va oxiridan ikkita zingshpil – “Haramdan olib qochish” va “Sehrlil fleyta” joy oladiki, bular rechitativlar o'rniga nutq dialoglari ishlatilgan nemischa tekstlarga yozilgan; shu davr ko'lami ichida italyancha opera buffa an'alarini avstriycha milliy madaniyat sharoitlarida rivojlantirib boradigan, italyancha tekstlarga yozilgan ikkita opera – “Figaroning uylanishi” va “Hamma shunday qiladi” joylashgan, bularning orasida Motsartning eng ulug'vor asarlaridan biri – italyancha tekstga yozilgan, musiqali tragediya va komediya teatrining eng muhim xususiyatlarini payvasta qilib bir-biriga qo'shgan va psixologik musiqali drama bo'lib hisoblanadigan “Don-Juan” operasi qad ko'tarib turadi.¹⁷

Motsartning “operada poeziya musiqaning itoatgo'y qizi bo'lmog'i kerak” degan fikri uning opera estetikasini tushunmoq uchun juda muhim. Motsartning operaga qarashlari musiqani dramatik voqeaga bo'ysundirishga intilgan Glyukning qarashlaridan mohiyat e'tibori bilan qanday farq qilishi mana shu qisqacha aforizmdan aniq bo'lib qoladi. Biroq, Glyukning “men opera yaratayotganimda musiqachi ekanligimni unutishga harakat kilaman” – degan mashhur so'zlarini tom ma'noda tushunish kerak bo'maganidek, Motsartning bu fikrini ham tom ma'noda tushunish kerak emas. Motsart musiqani operaning asosi deb hisoblanadi va shu bilan bir vaqtda operaning dramatik mazmuniga katta ahamiyat berdi. Uning yetuk

¹⁷ Popova T.V. Zarubejnaya muzika XVIII veka M.1976. 131-bet

operalarida musiqa hamisha sahnadagi voqeaning rivojlanishi bilan boshdan oyoq bir bo'lib boradi. Motsart o'z operalarining librettosiga haddan tashqari zo'r talab qo'yganki, tarjimai holidan olingan ko'pgina faktlar va xatlar bundan dalolat beradi.

Myunxenda "Idomeney"ning sahnaga qo'yilishiga tayyorlanayotganligi munosabati bilan Motsartning shu shahardan turib otasiga yozgan xatlari shu jihatdan alohida diqqatga sazovordir. Bu xatlarda kompozitorning opera librettochisi Vareskoga o'z otasi orqali bergan yo'l-yo'riqlari bor. Motsart libretto tekstimumkin qadar lo'nda bo'lishi kerak deb hisoblar edi: bunda pardani cho'zib yuboradigan hech narsa bo'lmasligi kerak. Shu ma'noda olganda o'ziga xos qonuniyatlarga ega bo'lgan opera sahnasini Mo'tsart hayron qolarlik darajada ziyraklik bilan sezgan va tushungan bo'lib chiqadi. Xatlaridan birida u mana bunday deb yozadi: "... ikkinchi duet butunlay chiqarib tashlanadi va opera uchun bu zararli bo'lmasdan, balki ko'proq foyda beradi..."

Boshqa bir xatda mana bularni o'qiymiz: "Idomeney" da ikkinchi pardasining so'nggi sahnasida xorlar orasida ariya yoki aniqrog'i, bir nav kavantina bor – buni shunchaki rechitativga aylantirgan ma'qul; shu o'rinda sozlar yaxshi ish berishi mumkin, chunki butun operada hammadan chiroyli bo'ladigan bu sahnada shu qadar shovqin-suron va shunaqangi olog'ovur bo'ladiki, bu joyda ariya yomon taassurot tug'diradi va bundan tashqari, momaqaldiraq bo'lib turadi – janob Raafning ariyasi bor ekan deb to'xtab qolmaydi-da, u endi" va yana bitta tsitata: "Zamin ostidan keladigan ovoz" nutqining haddan tashqari uzunligini sezayotganingiz yo'qmi ko'nglingizda? Buni yaxshilab o'ylab ko'ring. Teatrni ko'z oldingizga keltiring; ovoz vahima soladigan – gumburlab chiqib keladigan bo'lishi lozim. Uning chindan ham shunaqa ekanligiga ishonish kerak-da. Agar nutq haddan tashqari uzun bo'lsa, bu ovoz qanday qilib bunaqa ta'sir ko'rsatishi mumkin? . "Gamlet"dagi arvoh nutqi shu qadar uzun bo'lmaganida edi, u tag'in ham yaxshiroq ta'sir qilgan bo'lur edi".

Genial musiqachi-dramaturg Motsart o'z librettochilaridan imkoni boricha lo'ndalikni va musiqaga e'tibor berishni talab qilar edi. Motsart musiqani birinchi

o'ringa qo'ygani holda operaga musiqali asarning o'zigina emas, balki murakkab sintetik badiiy organizm deb qara edi.

U opera librettosining mustaqil dramatik asar emasligiga ishonar va librettoning musiqali dramaturgiyaning o'ziga xos vazifalarga to'la-to'kis mos kelishiga, musiqa bilan dramatik voqeaning ajralmas bir yaxlit bo'lib qo'shilib ketishiga, opera voqeasidagi barcha elementlarning bir-biriga mos keladigan bo'lishiga erishmasdan qolmas edi, mutlaqo.

Motsart seria, buffa va zingipil janrlarida operalar yozdi va shu janrlardan har biri unga xuddi Vena klassik simfonizmining printsiplari singari boshqa janr elementlarini qo'shishyo'li bilan Motsart ijodida yangilandi va boyib bordi.¹⁸

Chunonchi, "Figaroning uylanishi" asosiy janr belgilariga ko'ra – opera buffa-dir. Biroq, shu operadagi grafinya obrazini buffon obrazlari tipidan iborat deb bo'lmaydi: uning birinchi ("Muhabbat tangisi" degan) ariyasida ham xuddi ikkinchi ariyasining birinchi qismidagi singari opera seria-ning lirik ariyalariga xos lamento xususiyatlari bor. "Haramdan olib qochish" zingshpilidagi Konstantsa partiyasida, "Sehrli fleyta" zingshpilidagi tun Malikasining ikkala ariyasida ham opera seria uchun xarakterli bo'lgan talaygina xususiyatlar bor.

Motsart opera dramaturgiyasining yuksak novatorlik yutuqlaridan biri qatnashuvchi shaxslar, opera qahramonlariga mohirlik bilan musiqaviy xarakteristika berilganligidir. Motsart operalaridagi qatnashuvchi shaxslar qotib qolgan niqoblar bo'lmay, balki umumlashtirilgan tipik hamda individual konkret jihatni payvasta qilib bir-biriga qo'shgan tirik odamlardir. Ularning ichki va tashqi qiyofasi butun spektakl davomida asta-sekin ochilib boradi. Don-Juan, Figaro, donna Anna, Syuzanna va boshqa ko'pgina personajlar shular jumlasidandir. Shu jihatdan olganda Motsartning musiqali teatri XVIII asr opera dramaturgiyasidagi realizmning yuksak yutug'i bo'lib hisoblanadi.

Motsart operalarida qatnashuvchi shaxslarning mohirlik bilan borilgan musiqaviy xarakteristikalarini xususida A.N.Serov mana bunday deb yozgan: "Rassomlikdan bexabarlarga tushuntirib bo'lmaydigan bir qobiliyat: odamning

¹⁸ Levin B.V. Muzikalnaya literatura zarubejnix stran. vip.P. M.1979. 174-bet

o'zidagi o'z mennini yolg'iz ijodiy xayolning kuchi bilan tamomila yo'q qilib yubora olishi shoirning ruhiga mutlaqo begona o'lgan boshqa bir shaxslar qiyofasiga go'yo butun vujudi bilan o'tib ola olishi – xuddi o'shalarning o'zidek his qilishi, fikrlashi, yashashi – xullas tanva qondan tarkib topgan haqiqiy, aniq bor kishilar kabi shoirlardan va bir-birlaridan mutlaqo mustaqil alohida bir shaxslarni yarata olish – ana shular ob'yektiv, dramatik ijodkorni ajratib turadigan xususiyatni tashkil etadi. Shu jihatdan olganda Motsart, aytish mumkinki, Gyote bilan Shekspirga teng; loaqal eng genial musiqachilar orasidan hech kim, hattoki ulug' Glyukning o'zi ham shu jihatdan unga teng kela olmaydi; Motsart operalaridagi shaxslar... tamomila tirik odamlardir, ularning nihoyat darajada turli-tuman, nozik, juda individual tomonlari bo'lgan alohida-alohida xarakterlari bor! ”.¹⁹

Motsart XVIII asr operasida deyarli qo'llanilmagan leytmotivlardan foydalanmasdan turib, ta'sirchan musiqaviy xarakteristikalar yaratadi. Biroq, operalarning asosiy qatnashuvchi shaxslar xarakterli kuy-ohang tuzilmalarini oladiki, bularning hammasi jamuljam bo'lib, xilma-xil xususiyatlardan tashkil topmish murakkab, yaxlit ma'lum bir obrazni hosil qiladi. Chunonchi, Don-Juan obrazida uning ayni-ishrat qilib qilib yashash uchun mukkasidan ketganligi, jasurligi, dalilligi, qat'iyligi; Syuzanna obrazida ayol kishiga xos latofat, ayyorlik, aql-idrok, ustomonlik; Bazilio obrazida qabihlik, xushomadgo'ylik, makkorlik bo'rttirib ko'rsatib beriladi va hokazo. So'z, sahnadagi voqea va musiqa vositalarini bir-biriga payvasta qilib qo'shish yo'li bilan mana shu barcha xarakteristikalarining haqqoniy va juda ma'nodor bo'lib chiqishiga erishiladi.

Qahramonlarning xarakteristikalarini yakka ijro etiladigan nomerlar va duetlardagina emas, balki ba'zi katta ansambllarda ham namoyon bo'ladi. 1 parda muqaddimasi va har bir ansambl ishtirokchisi uning obraziga xos intonatsion kompleks tufayli ajralib turadigan P parda seksteti nihoyat darajada ibratlidir. Bu o'rinda o'ziga xos, yagona ansambl sahnasi doiralarida har xil musiqali xarakteristikalarini bir yo'la payvasta qilib borilganligi bilan ifodalanadi.

¹⁹ Levin B. Chet el musiqasi / T. Fafurbekov tarjimai / T. 1987. 183-bet

Biroq qahramonlarning musiqali xarakteristikalarini realistik musiqali dramaturgiyaning eng muhim omillaridan biri erkin va chaqqonlik bilan yondashadi. Chunonchi, bir xildagi o'y-fikrlar va istak-xohishlar bilan yashayotgan butun bir gruppaga qatnashuvchi shaxslarga ba'zi hollarda yagona bir xarakteristika beriladi.

XVIII asr operasida kompozitsiya strukturasi ma'lum bir an'anaga ega bo'lgan; opera yo rechitativlar bilan yoki nutq dialoglari bilan bir-biriga birlashtirilgan bir qancha mustaqil tugal nomerlarni o'z ichiga olar edi. Har qaysi opera pardasi barcha yoki deyarli barcha qatnashuvchilar ishtirokida o'tadigan keng ansambl sahnasidan iborat kattakon final bilan tugar edi. Motsart ham ana shu an'anaga amal qilib bordi. Biroq u opera nomerlarini joylashtirishda o'tmish qolipiga hech qaragani yo'q. Ularning qanday tartibda birma-bir kelishini qotib qolgan sxema emas, balki hamisha dramatik voqeaning borishi taqozo qilar edi.

Masalan, "Figaroning uylanishi" Syuzanna bilan Figaroning ikki dueti bilan boshlanadi. Ustma-ust ikkita duet kelishi, kelganda ham ularni bir xil qatnashuvchilarning o'zi ijro etishi, - bu mavjud qonun-qoidalariga ro'y-rost xilof edi, ammo dramatik voqeaning borishi shuni talab qilar edi. Don-Juan o'zining birinchi ariyasini ilk marta sahnaga chiqqanida kuylamay, balki sahna va musiqali obrazi oydinlashganidan keyin – 1 parda finali oldidan kuylaydi. Mana shularning hammasi o'sha zamon opera stsenariysining sxemasidan chetlashish bo'lib, konkret dramaturgik reja talabi bilan qilingan.

Motsart operadan xatti-harakatni talab talab qilar va opera qahramonlarinavbatdagi ariyani kutib talab qilar va opera qahramonlari navbatdagi ariyani kutib sahnada qotib turmaydigan bo'lishi uchun qayg'urar edi. Uning opera shakli sohasidagi novatorligi shu bilan bog'liq. Bir qancha hollarda u ayrim nomerlarning tugalligini opera sahnasining to'ppa-to'g'ri rivojlanib borishi bilan birga qo'shadi.

Motsart operalari erkin tuzilganligi, katta ansambl sahnalari ajoyib mahorat bilan dramaturgik rivojlantirilganligi jihatdan ajralib turadi. Ular operalarning

hammadan keskin, asosiy sahnadan bo'lib, bularda nihoyat darajada jiddiy va keskin pallasiga yetadi. Voqeaning hamma iplari shularga tortilib keladi.

“Figaroning uylanishi” operasi kompozitsion belgilari jihatidan italyancha opera buffa janriga kiradi-yu, lekin musiqali-dramatik printsiplari jihatidan u XVIII asr musiqali teatri tarixida sifatijihatidan yangi hodisa bo'lib hisoblanadi.

O'zining qisqa umri davomida Motsart operalar va cholg'u asarlar ustida bir yo'la ish olib bordiki, bu esa – mazkur asarlarning bir-biriga ta'sir ko'rsatishiga sabab bo'ldi; opera musiqasi simfonik rivojlov usul-amallari bilan boyib bordi, cholg'u musiqasiga ohangdorlik singdi. Motsart simfonik va kamer asarlarining aksar musiqali obrazlari operalarining ariyalari va ansambllariga yaqin turadi.

Motsart cholg'u musiqasi bilan opera musiqasining bir-biriga bog'liqligi to'g'risidagi masala ko'rib chiqilar ekan, musiqa mavzularining ta'rifini chetlab o'tib bo'lmaydi. Motsart operalaridagi nozik lirik mavzular ham uning cholg'u asarlaridagi lirik kuylarga yaqin bo'lib chiqadi. “Sehrli fleyta” dagi Taminoning “qo'lda portret tutib aytadigan ariyasi” ning xuddi boyagi g-moll cimfoniyaning ikkinchi qismi mavzusiga yaqinligi yuqorida aytib o'tilgan edi. Motsart asarlarida chuqur mazmunli falsafiy mavzular, raqs mavzulari va boshqalarni ham uchratish mumkin.

Motsartning ko'pdan-ko'p cholg'u asarlari chuqur dramatism bilan sug'orilganki, mavzular xarakteri o'zi va ularni rivojlantirib borish yo'li bilan ham, faqat turli mavzular o'rtasidagi kontrastliknigina emas, balki ko'pincha mavzu ichidagi kontrastlikni kuchaytirib berish yo'li bilan ham shunga erishilgan – Betxoven ijodida rivojlantirilgan Motsart uslubining xarakterli xususiyati ana shunaqa.

Motsartning ba'zi asarlarda bir mavzuda ikki kontrast element borligi turli-tuman musiqali obrazlarni keyinchalik kengaytirib borish, bir-biri bilan taqqoslash va to'qnashtirish ularni dinamik tarzda rivojlantirib borish uchun omil bo'ladi. Motsart qalamidan chiqqan talaygina cholg'u asarlarning dramatik mazmuni kontrastlikning keskinlashib borishi – mana shularning hammasi hayotiy

konfliktlarni ziddiyatli voqelikning o'zini, bilvosita yo'l bilan, o'ziga xos tarzda aks ettirish usulidir.

Motsartning turli janrdagi har bir yetuk cholg'u asari badiiy jihatidan tamomila individual bo'lgan bir organizmki, uning faqat o'ziga xos, o'z qiyofasi bor, mana shu qiyofasi Motsart musiqasining uslub xususiyatlarini ham, umuman Vena klassitsizmining uslub xususiyatlarini ham bir yo'la mushtaraklashtirib beradi. Shu tariqa alohida bir, ayrim narsa bilan umumiy narsa, individual hodisa bilan tipik hodisa ajoyib suratda birlashib, yaxlit bo'lib boradi.

Motsartning cholg'u ijodiyotida har xil xarakterdagi qismlarning navbatlashib borishi bilan ifodalanadigan syuita xos sikl tuzilishi uzil-kesil bartaraf etiladi; sonatali-simfonik sikl jihatidan yaxlit bo'lib qoladi. Sikldagi hamma qismlarning mazmuni umuman butun asardagi obrazlar doirasini belgilab beradigan bitta mavzular kompleksidan kelib chiqadi.

Motsart yaratgan musiqa janrlariga simfoniya, serenadalar, divertissementlar, kassatsiyalar, turli cholg'ular va orkestr uchun kontsertlar kiradi.

Motsartning 8 yoshlik davrida yozgan dastlabki simfoniya ko'p jihatdan I.K.Baxning ta'siri bilan bunyodga kelgan edi. Motsartning Venada, Milanda, Parij va Mangeymda bo'lishi hamda ilg'or badiiy musiqaviy yo'nalishlar bilan ijodiy aloqalar bog'lashi simfonik tafakkurini rivojlantirib, qaror topishiga yordam berdi. Biroq, Motsart yevropa simfonizmining eng yaxshi yutuqlariga asoslandi va bunda ulardan o'zib ketdi.

Ilk simfoniya, bir qadar norasolik seziladi, tabiiyki, Motsartning yetuk simfonik ijodiyotiga xos bo'lgan simfonik kontseptsia, yaxlitligi, uslub birligi ularda hali qaror topmagan edi.

Motsartning ilk simfoniya, ba'zilar syuita, serenada, divertissementga yaqin turadi va siklga xos payvasta birlik ularda yo'q. Biroq, Motsartning tez o'sib, mustahkamlanib borayotgan individualligi: motsartcha xarakterli jummalarga ega bo'lgan dilrabo kuylar, musiqali ifoda usulining drammatizmi, musiqaviy to'qimaning dinamik ravishda rivojlantirib borilishi shularda ham yaqqol ko'zga

tashlanadi. 1788 yili Motsart genial simfoniyalar yaratadi va bu sohadagi ishini shu simfoniyalar bilan tugallaydi.



Lyudvig Van Betxoven Germaniyadagi Reyn daryosi bo'yida joylashgan uncha katta bo'lmagan Bonn shahrida 1770 - yilda dunyoga keldi. Uning bobosi ham, otasi Iogann ham ko'p yillar mobaynida saroy musiqachisi, ashulachi bo'lib ishlashgan. Betxovenlarning oilasi kambag'alchilikda kun kechirardi.

Lyudvig juda ham kamgap, o'z xayollari bilan yuradigan va o'zini har doim yolg'iz his qiluvchi bola edi. Ammo u musiqani jon - dildan sevardi. Otasi bolalarining musiqachi bo'lishini istamas edi. Shuning uchun ham yosh Lyudvig otasidan yashirincha skripka chalishni o'rganib oldi.

O'g'lining skripka chalishini tasodifan eshitib qolgan Iogann avval o'g'lini nihoyatda qattiq koyidi, so'ng Lyudvigning iste'dodi ekanini sezib, undan «ikkinchi Motsart»ni tayyorlamoqchi bo'ldi va bu orqali boyib ketish payiga tushdi. Iogann yosh Lyudvigga klavesin va skripkada chalishni mashq qildiradi boshladi. Ammo uning olib borgan mashg'ulotlari asosan gamma mashqlarini chaldirishdan iborat bo'lar edi. Lyudvig eshitgan musiqalarini tezda mustaqil o'rganib olar va anchagina asarlarni yod chalardi.

Oradan ma'lum vaqt o'tganidan so'ng, 1778 - yilda otasi Iogann 8 yoshli Lyudvigni jamoat oldiga birinchi bor chiqishini tashkil qiladi. Konsert muvaffaqiyatli yakunlanadi va yosh iste'dodli Lyudvig Van Betxovenning nomi xalq ichida tezda tarqalib ketadi. Endi unga maxsus o'qituvchilar chaqira boshlashadi. Organchi Nefe uning asl o'qituvchisi va qadrdon do'sti bo'lib qoldi. Tez orada Lyudvig klavesin, skripka va organda yaxshi chala oladigan, asarlarni erkin improvizatsiya qilib (turlicha bezak va shakllarda) chala oladigan bo'ldi.

Lyudvigni umumiy ta'lim maktabiga berish uchun oilaning mablag'i yetishmas edi. Juda katta mehnat evaziga Lyudvig maktabda o'qitiladigan fanlarni mustaqil o'rganib oldi. U, ayniqsa, nemis tili va adabiyotini, qadimgi filosoflarning asarlarini mukammal bilar edi. Oilaning nochor ahvoli Betxovenni yoshligidan

ishlashga majbur qildi. U saroy kapellasida organ chaluvchining yordamchisi bo‘lib ishlay boshladi.

Lyudvig Van Betxoven yoshligidan boshlab asarlar yozishga qattiq kirishdi. Ayniqsa, uning yaratgan sonatalari va simfoniyalari butun dunyoga mashhur bo‘lib ketdi. Hayotining oxirgi yillarida Betxoven og‘ir qiyinchiklarga duch keldi. Qizamiq kasali oqibatida Lyudvigning quloqlari eshitmay kar bo‘lib qolishi uning uchun dahshatli ko‘rgulik bo‘ldi.

Barcha qiyinchiliklarga qaramay, Betxoven hayotining oxirigacha musiqani tashlamadi. U o‘zidan juda ko‘plab nodir musiqa asarlari - sonatalar, pesalar, 9 ta simfoniya, oratoriya va “Fidelio” operasini yozib qoldirdi.

Hozirgi kunda ham xalqaro pianinotchilar, organchilar va simfonik orkestrlarning ko‘rik - tanlovida Lyudvig Van Betxovenning asarlari albatta ijro etadi. Lyudvig Van Betxoven musiqaning buyuk qudratli kuch ekanligini bilgan holda: “Musiqa inson qalbini chaqmoq kabi yoritmog‘i lozim!” - deya xitob qiladi.²⁰

Sinf fonotekasidan L. Betxovenning “Qahramonlik” 3 - simfoniyasidan parcha tinglang.

Mavzuni mustahkalash va takrorlash uchun quyidagi savol va topshiriqlardan foydalaniladi:

1. Lyudvik Van Betxovenning ilk bolalik yillaridagi hayoti haqida so‘zlab bering
2. Betxovenning birinchi konserti haqida gapiring.
3. Betxoven yashagan davr va uning Betxoven ijodiga ta’siri haqida so‘zlab bering.
4. Betxoven ijodidan namunalar keltiring.

2.2. Innovatsion texnologiyalar va ular asosida Vena klassik maktabi namoyondalari ijodini o‘rganish uslublari

Umumta’lim maktabi 7-sinfida Musiqa madaniyati darslarida Vena klassik maktabi namoyondalari ijodini innovatsion texnologiyalar asosida o‘rgatish xozirgi

²⁰ Begmatov S. va b. 6 sinf “Musiqa” darslik. T., 2008. 84-85 bet

zamon dolzarb vazifalardan biri. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar - bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi.

Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchi-talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi bilan amalga oshiriladi. Pedagogik texnologiya faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq bo'lib qolmasdan, balki o'qitish jarayonida qo'llanilishi zarur bo'lgan O'zTV, kompyuter, turli texnikalardan foydalanish bilan belgilanadi.

Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi – bu o'qituvchi va o'quvchi-talabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiya tushuniladi. Har bir dars, mavzu, o'quv faninig o'ziga xos texnologiyasi bo'lib, bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.²¹

Ta'lim texnologiyalarini loyihalashtirishda, biz uchun eng muhimi, o'quv jarayoning tartibi va rejimi emas, bu ikkinchi darajali. Bizni ko'proq, ta'lim oluvchilar bilan hamkorlikdagi faoliyatimizning tashqi ifodasi sifatida, uning tashkiliy shakli qiziqtiradi.

Guruhlarda ishlash – ta'lim oluvchilarning faoliyatini tashkil qilishning shunday shakli, u, o'quv guruhlarini, ma'lum bir vazifani ochish uchun, hamkorlikda, vaqtinchalik mikroguruhlariga ajratishni talab qiladi. Ta'lim oluvchilarga, qo'yilgan vazifaning mazmunini, uni yechish yo'llarini va usullarini belgilashni muvaffaq qilish taklif qilinadi. Bunda ilgari surilayotgan takliflarni hamkorlikda baholash orqali ularni amalga oshirish, bajarilgan ishlarni birgalikda tahlil qilish, hamkorlikda topilgan natijani oldin shakllantirib, so'ngra taqdim yetish so'raladi.

Ta'lim oluvchilarning hamkorlikdagi harakati tashkillashadi, bu esa, o'quv-bilish jarayonini faollashtirishga, ularda simpatiyani, kommunikativlikni shakllantirishga ko'maklashadi:

²¹ Eshmuratov M. Innovatsion texnologiyalar. T.2011. 15-bet

- vazifani hamkorlikda bajarish jarayonida, ta'lim oluvchilarda, o'rtoqlari tomonidan bildirilgan fikrlarni muhokama qilishga motivatsiya paydo bo'ladi;
- ta'lim oluvchilar bir-biriga savollar beradilar, shuning uchun, ular savollarni shakllantirishni bilishlari zarur, javoblarni- argumentlashtirishni, tushunishga erishish uchun esa, ular bir-birini diqqat bilan eshitishlari kerak;
- guruhlarda ishlash paytida, zarurati bo'lganda, ta'lim oluvchilar yordam berishlarini so'raydilar va boshqalarga yordam berishni o'rganadilar.

Ta'limning ushbu shakli, to'g'ri tashkil etilgan pedagogik rahbarlik va boshqaruv paytida, jamoatchilikning asosiy shartlarini amalga oshirishda ko'maklashadi, ya'ni: umumiy maqsadni anglashda, vazifalarni maqsadli taqsimlashda, o'zaro bog'liqlik va nazoratda.

Guruhlarda ishlash, atrofdagilarga bo'lgan munasabatni o'zgartiradi, "men va ular"dan "biz"ga o'tishni ta'minlaydi va o'zini guruhning bir bo'lagi sifatida his qilish imkonini beradi.

Guruhda ishlashni rejalashtirishda nimalarga e'tibor berish kerak?

- Vaqtga:
- Mashg'ulot modelini tanlashga.
- Ish joyini tanlashga va tayorlashga.

Ta'lim oluvchilar o'z o'rtoqlarining ishini muhokama qilish paytida, ishchanlik ruhida tanqid qilishni o'rganishi kerak. Lekin, buning uchun, aniq va ob'ektiv mezonlar bo'lishi kerak. Ta'lim oluvchilarni va butun guruhning ishini tahlil qilish hamda baholash imkoniyatini baholash tizimi zarur.

Vazifani bajarish davrida o'zlashtirilgan materiyallarga taaluqli testlarni tayorlab qo'yishingiz mumkin. Yoki har bir guruh, boshqalar ham materiyalning ushbu qismimi o'zlashtirganini aniqlash uchun savollar tayorlashi mumkin. Bunda, test topshirishga tayorgarlik paytida, guruh a'zolarining bir-birlariga yordam berishlariga ruxsat bering.

Yakun yasashda olingan ma'lumotlar va bilimlar hamda guruhda ishlashi to'g'risida tushuncha bo'lishi ham e'toborga olinishi kerak. Fikr-mulohazalar natijalar varaqasiga yozib boriladi.

Ish ugagandan so'ng, ta'lim oluvchilar bilan, ilar qhady ega bo'laganliklari, ish bo'yicha qanday natijalar olganliklarini muhakama qiling. Ta'lim oluvchilar tajriba o'ttirgan sari, ko'proq, yana nimani o'ganishlari to'g'risida emas, balki o'rgangan narsalari to'g'risida gapira boshlaydilar.

Guruhning barcha a'zolarining yangi qarorlari va mulohazalarini qayd yetib o'ting. Har bir taklifni etarlicha muhokama qiling. Agar u, ijodiy(nostandart) bo'lsa, unga erishish uchun zarur bo'lgan barcha mahoratlarni sanab o'ting.

Ta'lim oluvchilar ishlayotgan vaqtda nima qilmoq kerak? Ta'lim oluvchilar guruhlarda ishlayotgan paytda, biz kuzatuvchi sifatida bo'lamiz. Lekin, bu paytda ta'lim oluvchilarga yordam berishingiz mumkin.

Betartiblikning oldini olishga harakat qiling:

- Biz doimo guruhlar ishini boshqarib turishimiz lozim: mavzudan chetga chiqish-ta'lim oluvchilar uchun tabiiy hol;
- Guruh etakchilariga doim e'tibor qilib turing;
- Ta'lim oluvchilar, ish uchun zarur bo'lgan barcha materiyallardan foydalanish imkoniyatiga ega yekanligiga ishonch hosil qiling;
- Vazifani bajarish uchun etarlicha vaqt bilan ta'minlang;
- Barcha ta'lim oluvchilar bir holda haqqoniylik bilan baholanishini kuzatib boring;
- ruhlarda, natijalarni taqqoslash uchun vaqt ajrating;
- barcha o'quv guruhi uchun umumiy qoidani belgilang, har birini -guruh, o'zining siljishini o'zi rejalashtirishga ruxsat bering.
- Ta'lim oluvchilarning ishini borishi haqida fikringizni doimiy ravishda bildirib turing. Ularga yutuqlarini baholashga taaluqli aniq axborot bering. Xususan va xolisona tanqidiy fikr bildirishdan qo'rqmang. Biz uni, guruhdagi ishni bajarish paytida ham, uning ishiga yakun yasash paytida ham amalgam oshirishimiz kerak.

Guruhlar nazorat ostidan chiqib ketsa nima qilmoq kerak?

Guruhlarda ishning ketishini tekshiring va uni ta'lim oluvchilar bilan muhokama qiling. Bunday tartib-intizom sizni xavotiga solayotganini ayting. Ta'lim oluvchilarning qay biri, o'ziga ajratilgan vazifani bajarmayotganini ko'rsating. Vazifaning bajarilishi uchun barcha ma'sul yekanligini uqtiring.

Agar auditoriyadagi umumiy tartib-qoidalar buzilsa, guruh a'zolari bu holni muhokama qilib, yachimimi topishlarini so'rang.

Yoki boshqa variyanti ham mavjud. Har bir guruhga, besh daqiqa kuzatuvchini tayinlang va ushbu kuzatuvchilar ko'rganlari haqida axborot beradilar. So'ngra, ushbu guruhdagi tartib-intizomni barcha bilan muhakama qiling.

Guruhning ichida nizo paydo bo'lsa nima qilmoq kerak? Muhakama qilmang. Nima voqyea sodir bo'lganini guruhning o'zi tahlil qilib chiqishini va uning yechimini topishini so'rang. Yakun yasang.

Innovatsion texnologiyalarning asosiy metodlari va ularning qo'llanilish usullari: Biz, aniq o'quv mashg'ulotlari misolida, dars berish va o'quv jarayonida guruhlarda ishlash usulidan qanday foydalanish mumkinligini ko'rsatib beramiz va innovatsion texnologiyalarning ushbu metodlarini tahlil etamiz.

Kitob bilan ishlash texnoogiyasi: Ushbu vazifa quyidagicha bajariladi:

- Konvertlarda o'zlarining belgisini chizadi;
- Savollarni yozadilar;
- Konvertni chap tomondagi qo'shnisiga uzatadi;
- O'ng tomondagi qo'shnisidan konvertni oladi, javobni varaqqa yozadi, uni konvertga solib, chap tomondagi qo'shnisiga uzatadi.

Bunda, konvertning ichidagi javoblarni o'qish man yetiladi qoidasiga rioya qiladilar. Javoblar bilan tanishadilar.

Qo'yilgan savollarga jaoblar ularni qanchalik qoniqtirganligini aniqlaydilar. Guruh oldida o'z savollarini o'qiydilar. Unga o'rtoqlari taklif qilgan

variantlardan umumlashtirilgan javob beradilar. Guruhlarning vakillari savollar va javoblarni yig'ib oladilar, umumlashtiradilar. Umumlashtirilgan xulosani hammaga e'lon qilish lozim.

“Aqliy hujum” texnologiyasi: “Aqliy hujum”-jamo'a bo'lib muhokama qilishning samarali metodidir. Unda biror muammoning yechimini topish barcha ishtirokchilarning fikrini yerkini ifodalash orqali amalga oshiriladi.

“Aqliy hujum”ning tamoyili juda sodda. O'qituvchi o'quvchilar oldiga masalani qo'yadi va ushbu masalani yechish bo'yicha o'zlarining fikrlarini bayon qilishni so'raydi. Ushbu bosqichda hech kimning boshqa ishtirokchilarning g'oyalari haqida o'z fikrini bildirishga yoki unga baho berishga haqqi yo'q.

“Aqliy hujum” yordamida bir necha daqiqa ichida o'nlab g'oyalarni olish mumkin. G'oyalar soni asosiy maqsad emas. G'oyalar eng to'g'ri yechimni ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

“Aqliy hujum”ning qoidalari quyidagilardir:

- taklif yetilayotgan g'oyalar baholanmaydi va tanqid qilinmaydi;
- ish g'oyalar sonini ko'paytirishga qaratilgan, g'oyalar qancha ko'p bo'lsa shuncha yaxshi;
- har qanday g'oyani kengaytirishga, rivojlantirishga harakat qilish mumkin;
- har bir g'oya yozib boriladi;
- aqliy hujum o'tkazish vaqti qat'iy o'rnatiladi va unga rioya qilinadi.

Aqliy hujum tugagandan so'ng takliflar tahlil qilinadi va ulardan eng qimmatlilari keyinchalik ular bilan ishlash uchun tanlab olinadi. Tahlil qilinganda avvalo taklifning foydalilik jihatlariga e'tiborni qaratish lozim.

“Rolli o'yinlar metodi” texnologiyasi: Rolli o'yinlar metodining mohiyati shundan iboratki, unda o'quvchilar boshqa kishining roliga kirib, uning “ichida” harakat qiladilar. O'yinda o'quvchilarga asosan tugallanmagan vaziyatlar beriladi. Ular qaror qabul qilishlari, munozarali holatlarni bartaraf yetishlari yoki taklif yetilgan vaziyatlarni nihoyasiga yetkazishlari kerak bo'ladi.

Rolli o'yinlar o'quvchilarda boshqalarni tushunish, ularga xayrxohlik qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Boshqalar rolini o'ynash orqali, o'zgalarning o'y-xayollarini tushunish oson. Rolli o'yinlar o'quvchilarga turli vaziyatlarda o'zini tuta bilishning modellarini berishi mumkin.

Darslarda rolli o'yinlarini qo'llash quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. O'yinli vaziyatni tanlash. Rolli o'yinlar uchun ko'plab materiallar mavjud. Ular individual qiyinchiliklarni (masalan, Internet xizmati provayderi bilan muloqot qilish) va muammoni hal qilish vaziyatlarini (masalan, dasturiy mahsulot buyurmachisi bilan bahs) o'z ichiga oladi. O'yinlar maxsus savollar yoki muammolarni hal yetishda qo'llanilishi mumkin. Masalan, yosh bolalarga Internet tarmog'ining barcha ma'lumotlariga kirishga ruxsat berish kerakmi yoki yo'qmi, degan savolga javob topishda o'yin metodidan foydalanish mumkin. Va nihoyat, o'yin jarayonida o'quvchilardan intervyu olish, muzokara olib borish, tadqiqot olib borish va qaror qabul qilish, o'zini himoya qila olish ko'nikmalari rivojlanadi.

2. Tayyorlash. O'quvchilar vaziyat yoki muammo bilan tanishadilar va ular o'rtasida rollar taqsimlanadi.

3. Ishtirokchilarni tanlash. O'qituvchi rolga o'quvchilarni o'zi tanlashi, guruhda o'zlari taqsimlashlariga imkon berishi yoki xohlovchilarni taklif yetishi mumkin. Rolli o'yinlarda ishtirok etmayotgan o'quvchilar kuzatuvchi bo'lishlari yoki boshqa rolni o'ynashlari mumkin.


4. O'yinni o'tkazish. O'quvchilar o'yin doirasida o'zlarini tutish usulini o'zlari tanlaydilar. Bunda, albatta, Berilgan vaziyatga tushganda inson o'zini qanday tutishi mumkinligi asos qilib olinadi. O'yinning borishiga o'qituvchi aralashmasigi lozim. Ayrim hollarda o'yin tugagandan keyin rollarni almashib, yana bir bor o'yin o'tkazish foydadan xoli bo'lmaydi.

5. Muhokama O'yin muhokama qilinishi va baholanishi kerak. Ishtirokchilar va kuzatuvchilar o'yinda bo'lib o'tgan voqyealarni va bu voqyealar nima uchun ro'y berganligini muho kama qilish va tahlil yetish imkoniyatlariga ega bo'lishlari lozim.

Muhokama uchun quyidagi savollarni berish mumkin:

- Siz nimalarga o'rgandingiz?
- O'yin bo'yicha va har bir rol bo'yicha nimalarni his etayapsiz?
- O'yin hayotda ro'y beradigan vaziyatga nimasi bilan o'xshadi va nimasi bilan farq qildi?
muzokara olib borish, tadqiqot olib borish va qaror qabul qilish, o'zini himoya qila olish ko'nikmalari rivojlanadi.
- O'yin hayotda ro'y beradigan vaziyatga nimasi bilan o'xshadi va nimasi bilan farq qildi?
- Qo'yilgan masala hal etildimi?
- Agar boshqacha o'ynalganda nima bo'lar edi?

Tarmoqlar metodi (Klaster) texnologiyasi: Ushbu metod mantiqiy fikrlash, umumiy fikrlash doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o'rgatishga qaratilgan. Biron-bir mavzuni chuqur o'rganishdan oldin o'quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirishga xizmat qiladi.



1. Katta o'lchamdagi qog'oz yoki doskaning o'rtasiga mavzuga doir so'z yoziladi.

2. O'quvchilar ushbu so'z bilan bog'liq xayolga kelgan so'z va jummalarni uni atrofiga yoza boshlaydilar.

3. Yangi g'oyalar paydo bo'lishi bilan xayolga kelgan so'zlar ham darhol yozib qo'yiladi.

4. So'zlarni yozish jarayoni o'qituvchi tomonidan belgilangan vaqt tugaguncha yoki barcha so'z va g'oyalar tugaguncha davom etadi.

Klasterlarga ajratishda bir qator qoidalarga ham rioya qilish zarur.

1. Xayolga kelgan hamma narsani ularning mazmuniga e'tibor bermasdan yozib borish.

2. Orfografiya va boshqa omillarga e'tibor bermaslik.

3. Vaqt tugaguncha, iloji boricha to'xtalmasdan yozish.

4. Iloji boricha ko'proq bog'lanishlar hosil qilishga harakat qilish.

5. G'oyalar va so'zlar sonini cheklab qo'ymaslik.

Quyida misol sifatida "Axborot" tushunchasini o'rganishda qo'llaniladigan klaster berilgan. Uni dars jarayonida yanada to'ldirish va kengaytirish mumkin.

II – bob bo'yicha xulosa

XVIII asrda Avstriya aholisining xilma-xil qatlamlarida rasm bo'lgan turmushga oid xalq musiqasidan tashqari Venaning professional konsert va musiqa-teatr hayoti keng rivoj topdi. Vena metsenatlarining, turli aslzoda mansabdorlarning saroylarida yoki teatr zallarida tashkil etilgan katta konsertlar "musiqa akademiyalari" deb atalar edi. Mana shunday konsert-akademiyalarda mashhur san'atkorlar ishtirok etardi.

Vena akademiyalarining ko'pdan-ko'p tinglovchilari Motsart ijodiga qoyil qolishgan, XIX asr boshlarida Betxoven Venada konsertlar berib, bularda o'z opera va simfoniylariga dirijerlik qilgan va yakkaxon ijrochi bo'lib chiqqan. Vena

klassik maktabi namoyandalaridan Y.Gaydn yuzdan ortiq, V.Mosart qirq bitta, L.Betxoven esa to‘qqizta simfoniya turkumlarini ijod etgan.

Vena klassik maktabi kompozitorlari opera san’atini ham sermazmun asarlari bilan boyitishga va shu asnoda uni rivojlantirishga o‘z hissalarini qo‘shganlar. Bunga V.A.Mosartning “Figaroning uylanishi”, “Sehrli nay”, “Don Juan”. Betxovenning “Fidelio” operalari yorqin nomunalardir.

Vena klassik uslubi Motsart operalarida yorqin ifodasini topdi. Motsartning u yoki bu operasi qaysi bir janrga va qaysi bir yo‘nalishga mansub bo‘lmasin, hammadan avval Avstriya madaniyatiga taalluqli bir hodisadir. yevropaning hamma joyida bo‘lganidek, Venada ham italyancha opera hukmronlik qildi, o‘sha zamonga kelib bu opera xalqaro ahamiyatga ega bo‘lib qoldi.

Motsart opera dramaturgiyasining yuksak novatorlik yutuqlaridan biri qatnashuvchi shaxslar, opera qahramonlariga mohirlik bilan musiqaviy xarakteristika berilganligidir. Motsart operalaridagi qatnashuvchi shaxslar qotib qolgan niqoblar bo‘lmay, balki umumlashtirilgan tipik hamda individual konkret jihatni payvasta qilib bir-biriga qo‘shgan tirik odamlardir. Ularning ichki va tashqi qiyofasi butun spektakl davomida asta-sekin ochilib boradi. Don-Juan, Figaro, donna Anna, Syuzanna va boshqa ko‘pgina personajlar shular jumlasidandir. Shu jihatdan olganda Motsartning musiqali teatri XVIII asr opera dramaturgiyasidagi realizmning yuksak yutug‘i bo‘lib hisoblanadi.

Umumta’lim maktabi 7-sinfida Musiq madaniyati darslarida Vena klassik maktabi namoyondalari ijodini innovatsion texnologiyalar asosida o‘rgatish hozirgi zamon dolzarb vazifalardan biri. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatiga yangilik kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda interaktiv metodlardan to‘liq foydalaniladi.

Pedagogik texnologiya faqat axborot texnologiyasi bilan bog‘liq bo‘lib qolmasdan, balki o‘qitish jarayonida qo‘llanilishi zarur bo‘lgan TV, kompyuter, turli texnikalardan foydalanish bilan belgilanadi.

Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi – bu o‘qituvchi va o‘quvchitalabning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiya tushuniladi.

Dars berish va o‘quv jarayonida guruhlarda ishlash usulidan qanday foydalanish mumkinligi ko‘rsatib berilgan va innovatsion texnologiyalarning ushbu metodlari tahlil etilgan.

XULOSA

yevropa musiqa tarixida XVIII asrning boshlarida yangi davr boshlandi, bu davr voqyelikni progressiv metodi bo‘lmish simfoniya va opera qaror topishi bilan tugallandi. Yangidan-yangi shakl va janrlar paydo bo‘lib boradi va bularning shakllanish jarayonlari turli yevropa mamlakatlariga, turli milliy madaniyatlarga kirib bordi va yoyildi.

XVIII asr yevropa musiqa madaniyatida “Vena klassik maktabi” shakllandi. Tarixda “Vena klassik maktabi” nomi bilan ham shuhrat topgan bu ijodiy maktab an‘analari dastlab Yozef Gaydn va Volfgang Amadey Mosart musiqa asarlarida qaror topib, keyinchalik ularning yosh zamondoshi Lyundvig van Betxoven tomonidan ijodiy davom ettirilgan edi.

Ushbu maktab namoyandalari jahon musiqa madaniyatini sonata, kvartet, opera, simfoniya kabi yirik cholg‘u musiqa asarlari bilan boyitishga muyassar bo‘ldilar.

Musiqa san’atining deyarli hamma janr va shakllarida haddan tashqari katta ijodiy meros qoldirgan Gaydn kompozitor opera, messa, oratoriya, simfoniya, konsertlar, har xil tarkibdagi cholg‘u ansambllari uchun kamer asarlar, yakka sozda ijro etish uchun asarlar, xor, vokal ansambllari uchun qo‘shiqlar yozgan, asosan cholg‘u musiqasi sohasida haqli suratda jahonga manzur bo‘ldi. Ijodining tarixiy va badiiy qimmatini xuddi shu soha hammadan ko‘ra ko‘proq belgilab beradi. Sonatali-simfonik sikl Gaydn ijodida cho‘qqisiga yetdi. Shuning uchun ham Gaydn klassik simfonik va kvartet asoschisi bo‘lib tarixga kirgan.

Vena klassik maktabi yetuk simfonizmining asosiy uslublari shakllanishi jarayonida Gaydnning ilk simfoniylari maneyimli ustozlarning simfoniylari bilan bir qatorda, endi muhim xalq bo'lib qolgan davrga taalluqlidir. Gaydnning keyingi simfoniylari endi Motsartning barcha simfoniylari mavjud bo'lgan, yosh Betxoven esa fortepiano sonatalari va kamer ansambllarida o'z simfonik tafakkuri prinsiplarini ishlab chiqib, Birinchi simfoniya yaratishga yaqinlashib qolgan chog'da yozilgan. Shunday qilib, Gaydn simfoniylari ulug' kompozitor ijodiy yo'lini o'rganish uchungina emas, balki umuman, XVIII asr klassik simfonizmining shakllanish va rivojlanish jarayonini tushunib olish uchun ham diqqatga sazovordir.

XVIII asrda Avstriya aholisining xilma-xil qatlamlarida rasm bo'lgan turmushga oid xalq musiqasidan tashqari Venaning professional konsert va musiqa-teatr hayoti keng rivoj topdi va mana shunday konsertlarda mashhur san'atkorlar ishtirok etardi. Betxoven Venada konsertlar berib, bularda o'z opera va simfoniylariga dirijerlik qilgan va yakkaxon ijrochi bo'lib chiqqan ko'pdan-ko'p tinglovchilari Motsart ijodiga qoyil qolishgan. Vena klassik maktabi namoyandalaridan Y.Gaydn yuzdan ortiq, V.Mosart qirq bitta, L.Betxoven esa to'qqizta simfoniya turkumlarini ijod etgan.

yevropaning hamma joyida bo'lganidek, Venada ham italyancha opera hukmronlik qildi, o'sha zamonga kelib bu opera xalqaro ahamiyatga ega bo'lib qoldi. Vena klassik maktabi kompozitorlari opera san'atini ham sarmazmun asarlari bilan boyitishga va shu asnoda uni rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shganlar. Bunga V.A.Mosartning "Figaroning uylanishi", "Sehrli nay", "Don Juan". Betxovenning "Fidelio" operalari yorqin nomunalardir.

Umumta'lim maktabi 7-sinfida Musiqa madaniyati darslarida Vena klassik maktabi namoyondalari ijodini innovatsion texnologiyalar asosida o'rgatish xozirgi zamon dolzarb vazifalardan biri. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi.

Pedagogik texnologiya faqat axborot texnologiyasi bilan bog‘liq bo‘lib qolmasdan, balki o‘qitish jarayonida qo‘llanilishi zarur bo‘lgan O‘zTV, kompyuter, turli texnikalardan foydalanish bilan belgilanadi.

Vena klassiklari musiqiy janrlarning shunday bir yuksak tipini yaratdilar, unda butun obraz mazmunining boyligi mukammal badiiy shaklda mujassamlashgan.

Istiqlol sharofati bilan O‘zbekiston Respublikasida keyingi yillarda muhim siyosiy - ijtimoiy o‘zgarishlar ro‘y berdi. Xususan, “Ta’lim to‘grisida” Qonun Qabul qilinib, to‘qqiz yillik umumiy o‘rta ta’lim tizimi joriy etildi. Ta’limni demokratlashtirish, individuallashtirish, mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olish tamoyillari asosida barcha o‘quv predmetlari, shu jumladan musiqa predmeti bo‘yicha ham yangi o‘qitish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Bu holatlar milliy musiqa ustuvorligi nuqtai nazaridan qayta ishlab chiqilgan mazkur dasturda ham o‘z aksini topdi.

Jumladan, yangi dasturning tayanch nuqtalari quyidagilar bilan belgilanadi: avvalo, saboqda musiqaning muayyan mohiyatini tushunishga yordam beruvchi darslarning muayyan mavzulari har bir chorak uchun belgilangan bosh mavzulardan kelib chiqadi.

Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashda maktabda o‘qitiladigan barcha fanlar qatori musiqa darslarining ahamiyati katta. Mashg‘ulotlarni turli interfaol metodlar, pedagogik texnologiyalar va innavatsion texnologiyalar asosida olib borish samarali natijalar beradi. Musiqa inson his tuyg‘ularini orzu istaklarini o‘ziga xos badiiy tilda ifoda etadi va hissiyotlariga faol ta’sir ko‘rsatadi.

Musiqa darslarining asosiy maqsadi o‘quvchilarda musiqaga qiziqish uyg‘otish va musiqiy taasurotni tarkib toptirish, musiqani san’at sifatida ongli idrok etish va musiqiy didlarni o‘stirishdan iborat. Natijada bolalarda musiqa haqida mushohada qilishning boshlang‘ich asoslari vujudga keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch . T. 2008
2. Abdullaev R.A. Musiqa ijodiyoti masalalari (maqolalar to'plami) T.2002
3. Abdullaev R.A Opera dramaturgiyasi T., 2006
4. Akbarov I.A. Musiqa lug'ati T.1987
5. Begmetov S. va boshqalar Musiqa 7-sinf uchun darslik T., 2008
6. Vaynkop Yu.,Gusin I. Kratkiy biograficheskiy slovar kompozitorov. L.1976
7. Vladimirov V.,Lagutin A. Muzikalnaya literatura. M.1978
8. Galatskaya V. Muzikalnaya literatura zarubejnix stran. I tom M.1985
9. Galatskaya V. Muzikalnaya literatura zarubejnix stran. P tom M.1988
10. Galatskaya V. Muzikalnaya literatura zarubejnix stran. IIItom M.1974
11. Druskin M. Istoriya zarubejny muziki vip II M.1983
12. Druskin M. Istoriya zarubejny muziki vip III M.1982
13. Druskin M. Istoriya zarubejny muziki vip IV M.1984
14. Konen V. Istoriya zarubejny muziki 6-izdaniya M.1984
15. Konen V. Istoriya zarubejny muziki 7-izdaniya M.1989
16. Kolovskiy O.P. Analiz vokalnix proizvidenii L. 1988
17. Kruntyaeva T. va boshqalar Slovar inostrannix terminov L. 1985
18. Levik B. Chet el musiqasi /T.G'afurbekov tarjimasi / T.1987
19. Levik B.V. Muzikalnaya literatura zarubejnix stran. Vip.P.M.1979
20. Levik B.V. Muzikalnaya literatura zarubejnix stran. Vip.IV.M.1976
21. Levik B.V. Muzikalnaya literatura zarubejnix stran. Vip.V.M.1984
22. Levik B.V.Istoriya zarubejny muziki M.1966
23. Lobanova M. Muzikalniy stil i janr M. 1990
- 24.Mamirov K.A. Uzluksiz ta'lim tizimida musiqa fanlarini o'qitish masalasi . T.2009
25. Oqilxon Ibraximov, Jamil Sidirov Musiqa 7-sinf uchun darslik T. 2008
26. Patina S.V. Iz istorii zarubejny muziki. M.1977
27. Popova T.V. Zarubejnaya muzika XVIII veka. M.1976
28. Proxorova I. Muzikalnaya literatura zarubejnix stran. M.1987
29. Eshmurotov M. Innovatsion texnologiyalar. T.2011

1. [www. tdpu. uz](http://www.tdpu.uz)
2. www. pedagog. uz
3. www. ziyonet. uz
4. www. edu. uz
5. tdpu-intranet. ped
6. belkanto.ru,

ILOVA





«Детская симфония». Старинная гравюра.

ЙОЗЕФ ГАЙДН

СИМФОНΙΑ МИ-БЕМОЛЬ МАЖОР

ЧАСТЬ I

Adagio (Медленно)

Флейта, гобой

pp — *p* Виолончели, контрабасы

Литавры

Скрипки

Струнные

sf p sf p sf p

Allegro con spirito (Скоро с воодушевлением)

p

ЧАСТЬ III. МЕНУЭТ

Тutti

f

Скрипки

p

pp

f

Скрипки, флейта

pp

Тutti

f

СОНАТА МИ МИНОР
ЧАСТЬ I

41

Presto (Очень быстро)

The musical score for the first part of the Sonata in D Minor, Part I, page 41, is presented in two staves. The tempo is marked 'Presto (Очень быстро)'. The key signature is one sharp (F#), and the time signature is 6/8. The score includes various musical notations such as notes, rests, trills (tr), and dynamic markings (p, f, mf, cresc.). Fingering numbers (1-5) are provided for many notes. The piece is marked 'Presto (Очень быстро)'.

14432

ЧАСТЬ III. ФИНАЛ
(с сокращением)

Molto vivace (Очень живо)

p innocente

f

p

sf p



Wolfgang Amadeus Mozart **“Figaroning uylanishi” operasi**



«Sehrli fleyta» operasi



V.MOTSART
(40-simfoniyasi)

O'rtacha tez

The image displays the first five measures of the first movement of Wolfgang Amadeus Mozart's 40th Symphony. The music is written for piano in G minor, 2/2 time, with a tempo marking of 'O'rtacha tez' (Moderato). The score is presented in five systems, each with a grand staff (treble and bass clefs). The first measure begins with a piano (*p*) dynamic and features a descending eighth-note scale in the right hand and a steady eighth-note accompaniment in the left hand. The melody in the right hand consists of eighth-note figures, often beamed in pairs. The key signature has two flats (B-flat and E-flat), and the time signature is 2/2. The piece concludes with a final measure containing a whole note chord in the right hand and a half note chord in the left hand, both marked with a piano (*p*) dynamic.

BAHOR SOG'INCHI

A. Overder she'ri
Safar Barnoyev tarjimasi

V.A. Motsart musiqasi

Kel- gin, ba- hor, qay- ta ya-na gul- la- sin qir- lar. Chul-
di- ra- gan ir- moq- lar- dan yay- ra- sin dil- lar, Qush-
lar so- zi, qu- yosh nu-ri Ko'z- la- ri- miz och- sin, o't-
loq- lar-da o'y- noq- lay-lik, Zavq- la- ri- miz tosh- sin.



Lyudvig van Betxoven



ELIZAGA

Lyudvig Van Betxoven musiqasi

Tezlashtirib



1. 2.

The first system of musical notation consists of two staves. The upper staff begins with a first ending bracket labeled '1.' and a second ending bracket labeled '2.'. The music features a melody in the upper staff and a bass line in the lower staff. A dynamic marking of *mf* (mezzo-forte) is present in the second measure of the second ending.

The second system of musical notation continues the piece. It features a melody in the upper staff and a bass line in the lower staff. Dynamic markings of *p* (piano) and *pp* (pianissimo) are present in the second and fourth measures, respectively.

The third system of musical notation continues the piece. It features a melody in the upper staff and a bass line in the lower staff. The music includes various musical notations such as slurs, ties, and accidentals.

The fourth system of musical notation concludes the piece. It features a melody in the upper staff and a bass line in the lower staff. The music includes various musical notations such as slurs, ties, and accidentals.